


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

“SERVIS” fakulteti

5111000-KASB TA'LIMI (IQTISODIYOT) yo'nalishi

TASDIQLAYMAN

“Kasb ta'limi” kafedrası mudiri
 dots. S.T. Aliqulov

« 2 » 07 2019 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA
TOPSHIRIQ

Talaba : 101-15 KT (Iqt.) guruh talabasi Oodirov Javlon

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: “Lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi” mavzusini ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish usulini ishlab chiqish.

1. BMI mavzusi institutning 2018 yil 26 dekabrdağı № 494-T sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati. “28.0” 06 2019 yil.

3. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga doir ma'lumotlar: Kasb-hunar kollejlari DTS, o'quv rejalari, fan dasturlari

4. Bitiruv malakaviy ishini tushuntirish qismining tarkibi:

4.1. Kirish qismi.

4.2. Iqtisodiy bo'lim.

4.3. Pedagogik uslubiy qism.

4.4. Mehnat va hayot faoliyati xavfsizligi.

4.5. Tavsiya va xulosalar.

4.6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

5. Chizma materiallar ro'yxati:

5.1. Akriya to'lovlar hisob-kitobi va ularni

5.2. Tehnologiya Xaritasi

6. Mavzuga oid slaydlar to'plami


Topshiriqni bajarishga kirishilgan sana 07.01.2019


(sana. talabaning imzosi)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

DAK raisi


« 30 » « 06 » 2019 yil

“Kasb ta’limi” kafedrası mudiri

 dots. S.T. Aliqulov
« 30 » « 06 » 2019 yil

TUSHUNTIRISH QISMI

Mavzu: “Lizing to’lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi” mavzusini ta’lim texnologiyalari asosida o’qitish usulini ishlab chiqish.



BITIRUV MALAKAVIY ISHINING TARKIBI

Tushuntirish qismi _____ 62 _____ bet
Grafik qismi _____ 2 _____ varaq
Talaba: 101-15 KT (Iqtisod) guruh talabasi Qodirov Javlon

Bitiruv malakaviy ishi rahbari:

Ashurova S.

QISMLAR BO‘YICHA MASLAHATCHILAR:

1. Iqtisodiy qismi bo‘yicha _____  Umarova Z.
2. Pedagogik uslubiy qism _____  Ashurova S.
3. Mehnat va hayot faoliyati xavfsizligi _____  M. Tirkasheva

TAQRIZCHILAR:

1. Baxmed Iymonov, 150 - yuliyatlar markazi Usharob to
2. X.P.V. Serbue efektlarini qidira Xalimov X.P.

Jizzax– 2019

ANNOTATSIYA

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: Lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi" mavzusini ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish usulini ishlab chiqish.

Lizing jarayonlari bo'yicha asosiy ish faoliyati yuritadigan dastlabki aksionerlik jamiyati 1952 yilda San-Fransiskoda tashkil etilgan "United States Leasing Corporation" Amerika kompaniyasidir. Fransiyada birinchi lizing kompaniyasi 1957 yil, Angliyada-1960 yil, Germaniyada-1962 yil, Italiyada-1963 yil, Yaponiyada-1969 yilda tashkil etilgan. Bunday kompaniyalar vatanimizda 1990 yillarning o'rtalariga kelib tashkil etila boshlandi.

Lizing ayrim mamlakatlarda shakllanib, jahon miqiyosida juda keng rivoj topdi. Lekin davrlar o'tishi bilan bu soha bo'yicha xalqaro xamkorlikni huquqiy jihatdan tartibga solishda muammolar paydo bo'la boshladi. Unga ko'ra lizing tushunchasini aniq tasniflash lozimligi talab qilindi. Inglizcha "Leasing", "Lesson" va "Lessee" atamalari o'zbek tilida to'liq o'z ifodasini topmagan. "Leasing" so'zi "ijara" ma'nosida qo'llanib kelinmoqda. Biroq lizing shartnomasi mazmuniga ko'ra, uskunalarni vaqtinchalik foydalanishga berish bo'yicha tomonlarning kelishuvi kelib chiqiladigan va uning kelishuv muddatini tugashi bilan o'z mulkiga o'tishi uni aynan ijara tushunchasi bilan bir xil mazmunda qarashga olib kelmaydi.

MUNDARIJA

	KIRISH	__bet
	1. BOB. IQTISODIY QISM	
I.	IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA LIZING TO‘LOVLARI HISOB-KITOB-LARINI NAZARIY ASOSLANISHI	
1.1.	Lizingning iqtisodiy mohiyati va turlari.....	__bet
1.2.	Lizing to‘lovlarini va lizingning moliyaviy samaradorligini aniqlash tartibi.....	__bet
1.3.	Lizing shartnomasi va lizing ob’ekti bilan bog‘liq risklar..	__bet
	II. BOB. PEDAGOGIK QISM	
II.	LIZING TO‘LOVLARI HISOB-KITOB-I VA ULARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI” MAVZUSINI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QITISH USULINI ISHLAB CHIQISH	
2.1.	Kasb-hunar kollejlari-da “Investitsiya va lizing asoslari” fani bo’yicha dars materiallarini tahlil qilish.....	__bet
2.2.	Kasb-hunar kollejlari-da o‘quv jarayonini tashkil etishda ta’lim texnologiyalari metodlaridan foydalanish.....	__bet
2.3.	“Lizing to‘lov-lari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi” mavzusini ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitishning namunaviy dars rejasini ishlab chiqish	__bet
III.	MEHNAT VA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	__bet
IV.	XULOSA VA TAKLIFLAR	__bet
V.	TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI....	__bet

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Mustaqillik sharofati tufayli yurtimizda lizing, sug'urta kabi xizmat turlari yo'lga qo'yilib, ular tobora takomillashtirilmoqda. Bunda, ayniqsa, sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yaratilgani muhim ahamiyat kasb etayapti.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek "«Iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan turib, siyosiy mustaqillikni ta'minlab bo'lmaydi» degan qoidaga amal qilgan holda, biz mamlakatimizning iqtisodiy qudratini oshirish, jahon maydonida uning raqobatdoshligini ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini izchil davom ettiramiz. Bizning oldimizda 2030 yilgacha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini 2 barobardan ziyod oshirish, bunda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 33,5 foizdan 40 foizga etkazish vazifasi turibdi.

Darhaqiqat, yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun lizing opertasiyalarini davr bilan hamnafas va hamqadam bo'lgan holda rivojlatirish zarur bo'ladi.

Lizing kompaniyalari tomonidan korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun har tomonlama qulay va manfaatli bo'lgan yangi ikkilamchi, operativ lizing xizmatlari taklif etilayotgani esa sohaning istiqbolli ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Demak, lizing rivoji bundan keyin ham taraqqiyotimizga xizmat qilaveradi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida O'zbekistonda mavjud qonunchilikdagi imtiyozlarga tayanib, respublikada lizing mexanizmini qo'llash korxona va tashkilotlarni faoliyatini jadallashtirishga, ular uzoq muddatli aktivlarini hajmini oshirish imkonini beradi. Ikkinchidan, lizing amaliyotini tijorat banklari hamda lizing kompaniyalari tomonidan keng qo'llanilishi bozor iqtisodiyotining raqobat muhitida afzalliklar yaratadi.

Lizing – bu tadbirkorlik turi bo'lib, vaqtinchalik bo'sh bo'lgan yoki qarz qilib olingan pul mablag'larini investitsiya qilish orqali, lizing shartnomasi asosida lizing beruvchi lizing shartnomasida ko'rsatilgan mulkni, aniqlangan sotuvchidan sotib olish va lizing oluvchiga tadbirkorlik uchun aniqlangan to'lovlar asosida

vaqtinchalik foydalanishga etkazib berish majburiyatlarini oladi.

Fanning maqsadi va vazifalari: Mazkur o'quv dasturida o'quvchilarga amaldagi tarmoq ta'lim standartlari doirasida chuqur bilim hamda amaliy ko'nikmalarni berish, o'qitishning interaktiv uslublari, yangi avlod axborot kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuterlashtirilgan dasturlar qo'llagan holda mashg'ulotlarni nazariy, amaliy darslar ko'rinishida tashkil etilib chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar berish maqsad qilib qo'yilgan.

Alohida urg'u fanlararo bog'lanishga berilgan bo'lib, bunda "Qimmatli qog'ozlar bozori", "Investitsiya va lizing asoslari", "Moliya" fanlarida o'tilgan mavzular fanni o'zlashtirish uchun asosiy zamin bo'ladi.

Fan bo'yicha o'quvchilarning bilimi bo'yicha quyidagi talablar qo'yiladi: Dastlabki iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish; Iqtisodiy kategoriyalar, bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarini bilish; Investitsiya va lizing haqida umumiy tushunchaga ega bulish .

Fan bo'yicha o'quvchilarning ko'nikmalari bo'yicha quyidagi talablar qo'yiladi: Investitsiya, ularning iqtisodiy mazmuni va mohiyatini anglash; Investitsiya turlari va ularning moliya bozoriga kerib kelishi to'g'risida tushunchaga ega bulishi; Investitsiya va lizing munosabatlaridagi ishtirokchilar xaqida tushunchaga ega bulishlari; xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyot rivojida to'tgan o'rnini anglash; Investitsiya muxiti va siyosatini yuritish tartibini o'rganish taxlil qila olish ; «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini o'rganishi; Qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalar qanday tartibda kerib kelishini tushinib etish.

Fan bo'yicha o'quvchilarning malakalariga qo'yiladigan talablar: Investorlar o'z investitsiyalarini samarali yunaltirishda nimalarga e'tibor berishlarini bilish; Qimmatli qog'ozlarning turlari bo'yicha investitsiya kiritishning samaradorligini anglash; Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi tavakkalchiliklar va ularni baholash; Lizing munosabatlarini shakllanish jarayonini o'rganish; Lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: kirish, asosiy mazmunini ifodalovchi, ikkita bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. BOB. IQTISODIY QISM

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA LIZING TO'LOVLARI HISOB- KITOBLARINI NAZARIY ASOSLANISHI

1.1. Lizingning iqtisodiy mohiyati va turlari

Lizing muomilallarini yuzaga kelishini uzoq tarixiy bosqichlarini xarakterlash mumkin. Ilk bor "lizing" atamasi 1877 yilda qo'llanilgan, o'sha davrda "Bell" telefon kompaniyasi o'zining telefon apparatlarini mijozlarga sotmasdan, balki ijaraga berish to'g'risida qaror qabul qilish bilan uning dastlabki qadamlarini boshlagan edilar. Bunga ko'ra, o'rnatiladigan asbob-uskunalar mijozning uyi yoki ofisiga faqat ijara to'lovlari bo'yicha o'rnatiladigan bo'ldi.

Lizing jarayonlari bo'yicha asosiy ish faoliyati yuritadigan dastlabki aksionerlik jamiyati 1952 yilda San-Fransiskoda tashkil etilgan "United States Leasing Corporation" Amerika kompaniyasidir. Fransiyada birinchi lizing kompaniyasi 1957 yil, Angliyada-1960 yil, Germaniyada-1962 yil, Italiyada-1963 yil, Yaponiyada-1969 yilda tashkil etilgan. Bunday kompaniyalar vatanimizda 1990 yillarning o'rtalariga kelib tashkil etila boshlandi.

Lizing ayrim mamlakatlarda shakllanib, jahon miqiyosida juda keng rivoj topdi. Lekin davrlar o'tishi bilan bu soha bo'yicha xalqaro xamkorlikni huquqiy jihatdan tartibga solishda muammolar paydo bo'la boshladi. Unga ko'ra lizing tushunchasini aniq tasniflash lozimligi talab qilindi. Inglizcha "Leasing", "Lesson" va "Lessee" atamalari o'zbek tilida to'liq o'z ifodasini topmagan. "Leasing" so'zi "ijara" ma'nosida qo'llanib kelinmoqda. Biroq lizing shartnomasi mazmuniga ko'ra, uskunalarni vaqtinchalik foydalanishga berish bo'yicha tomonlarning kelishuvi kelib chiqiladigan va uning kelishuv muddatini tugashi bilan o'z mulkiga o'tishi uni aynan ijara tushunchasi bilan bir xil mazmunda qarashga olib kelmaydi.

Hozirgi vaqtda ham "lizing" va "ijara" tushunchalarini ta'riflashda har xil fikrlar mavjud. Buning mohiyati shundaki, mamlakatimiz amaliyotida bu ikki termin turlicha tushunchalardir. To'g'ri, "ijara", "moliyaviy ijara (lizing)", "moliyaviy lizing" va boshqa tushunchalar alohida me'yoriy hujjatlar bilan amaliyotga kiritilgan. Boshqacha qilib aytganda, ijara jarayonlarining ma'lum bir qismi xorijiy "lizing" so'zi bilan nomlanadi. Lekin albatta ularning farqlanish belgilari mavjud.

O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonunida lizing shartnomasi sodda mazmunda quyidagicha ta'riflanadi. «Lizing shartnomasi yozma shaklda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladi. Agar lizing oluvchi jismoniy shaxs bo'lsa, lizing shartnomasi notarial tasdiqlanishi lozim». Bu ta'riflash umumiy shartnomalarga xos deyish mumkin. Negaki shartnomalarning barcha turlari ham qonunda belgilangan tartiblarda tuziladi.

Lizing shartnomasi - mulkni sotib olish va uni lizing shartnomasi asosida jismoniy va huquqiy shaxslarga belgilangan to'lov hisobiga, qat'iy muddatga va shartlarda, mulkni keyinchalik lizing oluvchi tomonidan sotib olish huquqi bilan berish bo'yicha investitsiya faoliyatining bir turi hisoblanadi.

Lizing turlicha ta'riflanadi: Negaki uning ijara shaklida; kredit va investitsion munosabatlar bo'g'ini sifatida; investitsiya xizmatlari bozoridagi kredit shakli sifatida alohida mazmunga ega ekanligini ko'rish mumkin.

"Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda ko'char va ko'chmas mulk lizing ob'ektlari bo'lishi mumkin.

Er uchastkalari va boshqa tabiat ob'ektlari, shuningdek erkin muomalada bo'lishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan yoki muomalada bo'lishining alohida tartibi belgilangan mol-mulk lizing ob'ektlari bo'lishi mumkin emas." («Lizing to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi)

Umumiy jihatlari bilan birga, lizing va ijara munosabatlarining Prilutskiy L.N. tomonidan keng asoslab berilgan ma'lum farqlanishlari ham mavjud:

- 1) Ijaradan farqli o'laroq lizing munosabatlari lizingberuvchi va lizing oluvchi bilan bir qatorda lizingmulkning sotuvchisini ham o'z ichiga oladi;
- 2) Lizingda mulkni va uni ishlab chiqaruvchisini tanlash huquqi sotib oluvchiga beriladi. Bunda lizing beruvchilizing predmeti uni lizingga berish maqsadida sotibolinayotganligi haqida sotuvchini xabardor qiladi. Ijarada sotuvchi mustaqil o'ringa ega emas va deyarliishtirok etmaydi;
- 3) Lizingda lizing oluvchiga sotib oluvchiga xos bo'lgan huquq va majburiyatlar beriladi va yuklatiladi: mulk bevositasotuvchi tomonidan lizing oluvchiga beriladi, lizingberuvchi esa faqatgina mulk qiymatini to'lab beradi. Ijara munosabatlariga esa bu xos emas;
- 4) Ijara va lizing shartnomalarida tavakkalchilik turlicha belgilanadi. Ijara shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi mulkni ishlatishga to'siq bo'layotgan barcha etishmovchiliklar uchun ijarachi oldidajavobberadi. Lizing shartnomasiga muvofiq esa lizing beruvchi lizingga berilgan mulkdagi etishmovchilik vakamchiliklarga iste'molchi oldida javobgar emas, chunkilizing oluvchi ta'minotchini o'zi mustaqil tanlagan. Lizing oluvchiga etkazilgan zararga javobgarlik, ta'minotchini yoki mulkni tanlashda lizing beruvchiishtirok etgan bo'lsagina, uning zimmasiga yuklatiladi;
- 5) Lizing beruvchi shartnoma muddati davomida lizing bitimi ob'ekti egasi bo'lib hisoblanadi, lizing oluvchi esa mulkka egalik huquqi bilan bog'liq barcha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi (favqulodda yo'qotish tavakkalchiligi, texnik xizmat ko'rsatish). Lizing bitimidagi tavakkalchilikning bu kabi taqsimlanishi asoslidir, chunki lizing beruvchi mulkni lizing oluvchi manfaatlaridan va talabidan kelib chiqqan holda sotib oladi. Ijarada barcha xatar ijaraga beruvchida bo'ladi.

Muddati tugagunga qadar lizing beruvchi yoki lizing oluvchi xohishiga ko'ra lizing shartnomasi bekor qilinganda, mulkdan foydalanuvchi shartnoma shartlarini buzgan hollarda, shartnomada belgilangan umumiy summa to'langunga qadar lizing to'lovini amalga oshirilishi zarur. Ijarada majburiyatlarni bekor qilinishi bilan ijara to'lovini to'lash majburiyati bo'lmaydi.

Bank krediti kabi lizing kreditini ham o'z vaqtida qaytarib berish va undan foydalanganlik uchun haq to'lash kerak. Bank kreditini berishda ham, lizing kreditini berishda ham u yoki bu loyihani investitsiyalash qanchalik maqsadga muvofiq ekanligi haqida puxta ishlangan qaror qabul qilinadi. Bank kreditini olishda ham, lizing kreditini olishda ham qarz oluvchi o'z zimmasiga qarzning asosiy summasini va foizlarni o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi.

Lizingning bank kreditidan farqi:

- mulkchilik huquqining egalik qilish va foydalanish huquqidan ajratilishi bank kreditining lizing kreditidan eng asosiy farqidir;
- uzoq muddatli bank krediti berilganida kreditdan foydalanganlik uchun foizlar to'lash soliq to'langanidan keyin foyda hisobidan amalga oshirilsa, lizing berilganida bu to'lovlar boshqa to'lov bilan birga mahsulot tannarxiga kiritiladi, bu esa foyda solig'i bo'yicha tegishli soliqqa tortish bazasini kamaytiradi;
- agar bank krediti moliyalashtirishning qo'shimcha manbai tarzida namayon bo'lsa, lizing krediti qoida tariqasida bitimni 100% moliyalashtirishni ta'minlaydi;
- kredit ta'minoti bo'lib, bank kreditida mol-mulkni garovga qo'yish, bank kafolati, ipoteka, kafillik, sug'urta va boshqalar bo'lsa, lizing kreditida asosan lizing ob'ekti o'zi bo'ladi. Lizing to'g'risida"gi Qonun lizingni shakli, tipi va turi bo'yicha sinflashni xarakterlaydi. Lizingning asosiy shakllari ichki va xalqaro lizingdir. Ichki lizingni amalga oshirishda lizing oluvchi, lizing beruvchi va sotuvchi vakil hisoblansa, xalqaro lizingda esa

lizing beruvchi va lizing oluvchi vakil bo'lib hisoblanadi, lizingning asosiy tiplari: uzoq muddatli (uch yil yoki ko'proq muddatda amalga oshiriluvchi); o'rta muddatli (bir yarim yildan uch yilgacha); qisqa muddatli (bir yarim yildan kam bo'lgan muddatli).

Har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ijaraning jahon amaliyotida umumqabul qilingan ikki toifasi mavjud: moliyaviy ijara va operativ ijara.

Aksariyat mamlakatlarda moliyaviy ijara deganda mulkdan foydalanish hisobidan barcha yo'qotish va keladigan foyda ijaraga oluvchiga o'tkazilishi e'tiborga olingan bitim tushuniladi. Ijarani hisobga olishga bag'ishlangan moliyaviy hisobotning Xalqaro andozasida ijaraga aynan shu kabi ta'rif berilgan (International Accounting Standart (IAS-17) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 2-qism 34- bob 6-paragrafi" Lizing (moliya ijarasi)"ga muvofiq, moliyaviy ijara kelishuvida buzilish va yo'qotishdagi tavakkalchilik lizing oluvchiga yuklatiladi, biroq «IAS-17»da belgilanganidek tavakkalchilikni yuklash ma'lum bir ijara bitimini moliyaviy ijara shartnomasiga qo'shishda belgilovchi omil bo'la olmaydi. Demak, O'zbekistondagi moliyaviy ijara tushunchasi AQSH va G'arbiy Evropa mamlakatlarida shakllanib ulgurgan tushuncha hisoblanadi.

Lizingning asosiy turlariga moliyaviy va operativ lizingni kiritishimiz mumkin. Moliyaviy lizing - lizing beruvchi lizing oluvchi tomonidan belgilangan mulkni sotuvchidan sotib olish va lizing oluvchiga belgilangan to'lov va lizing predmeti to'liq amortizatsiya muddatiga teng bo'lgan muddatga ma'lum bir shartlar asosida vaqtinchalik foydalanishga berishdir.

Qaytariluvchi lizing - moliyaviy lizing turi bo'lib, bunda lizing predmeti sotuvchisi bir vaqtning o'zida lizing oluvchi sifatida namoyon bo'ladi.

Operativ lizing- lizing beruvchi mulkni sotib olib, uni lizing predmeti sifatida belgilangan to'lov hisobiga, shartnomada belgilangan ma'lum bir muddatda tegishli shartlar asosida vaqtinchalik egalik qilish va

foydalanishni lizingga oluvchiga beradi. Operativ lizingda lizing predmeti uni to'liq amortizatsiya muddati o'tib bo'lgunga qadar bir necha marotaba lizingga berilishi mumkin.

Investitsiya faoliyati uchun moliyaviy lizingni qulay ekanligini aniqlash uchun investitsiyalarni moliyalashning an'anaviy shakllariga nisbatan lizing jarayonlarining afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Moliyaviy lizingning kamchiliklariga quyidagilarni kiritish mumkin: lizing oluvchida lizing to'lovlarini olishdagi tavakkalchiligi va mulkni ma'naviy eskirish xatari lizing oluvchi o'z mablag'lari hisobiga olgandagiga qaraganda yuqori bo'lishi, ayrim hollarda esa bank krediti evaziga sotib olgan mulkka nisbatan lizingga olingan mulk bahosining yuqori bo'lishi, oshirib yuborilgan lizing to'lovlari mahsulot bahosining oshib ketishi va uning raqobatbardoshligini kamayishiga olib kelishi mumkin.

Fikrimizcha, keltirilgan kamchiliklar kapital qo'yilmalar shaklidagi xarajatlashning ushbu usuliga berilgan umumiy ijobiy bahoga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

1.1.1-chizma¹

Lizing munosabatlari sub'ektlari uchun lizingning qulayligi

Uskunalarini ishlab chiqaruvchi uchun
-Sotish bozorining kengayishi
-Texnikaga kafolatli xizmat ko'rsatish tizimini kengayishi
Lizing beruvchi uchun
-Foyda olish
-Amortizatsiya va soliq imtiyozlarining mavjudligi
-Mulk shaklida sarmoyalash
- moliyaviy xatarlarni yo'qligi
Lizing oluvchi uchun

□.manba: Muallif ishlanmasi

-Kam miqdordagi boshlang'ich kapital hisobiga ham ishni tashkil etish imkoni -YUz foizli kreditlash -To'lovlarni zudlik bilan amalga oshirishni talab etilmasligi -To'lovlarning qulay sxemasini ishlab chiqish imkoniyati
-lizing oluvchini mulk solig'idan ozod bo'lishi -Lizing to'lovlarini ishlab chiqarish va muomala xarajatlari tarkibiga kiritilishi -Vaqtinchalik foydalanishga olingan mulkni jismoniy va ma'naviy eskirish xatarini kamligi -YAngi mahsulot ishlab chiqarishda xatarni kamayishi -Soliq to'lashdagi imtiyozlar va jadal amortizatsiyani qo'llash Imkoniyati

Lizing jarayonlarining iqtisodiy samarasi ko'p hollarda ularning nechog'lik puxta rasmiylashtirilishiga bog'liq.

Lizing jarayonlarining bosqichlari, mohiyati va rasmiylashtirilishi

Bosqichlar	Mohiyati	Rasmiylashtirilishi
Tayyorlash va asoslash	Lizing to'lovini amalga oshirishdagi lizing oluvchining moliyaviy imkoniyatlarini baholash, mahsulotga bo'lgan talab va ijaraga olingan uskunalardan foydalanishni baholash, tovarning	Uskunani sotib olish yuzasidan lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchi taqdim etadigan buyurtma, lizing jarayoni samaradorligi va lizing oluvchining to'lov qobiliyati to'g'risidagi xulosa; lizing beruvchi tomonidan ta'minotchiga yuboriladigan buyurtma-hujjat; lizing jarayonini o'tkazish uchun lizing kompaniyasini bankka

Huquqiy jihatdan rasmiylashtirish	Lizing bitimini tuzish, zarur hujjatlarni rasmiylashtirish	Lizing jarayonini amalga oshirish uchun qarz berish to'g'risidagi bank va lizing kompaniyasi o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasi; lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi; lizing ob'ektini foydalanishga topshirishdagi qabul qilish-topshirish dalolatnomasi; lizing shartnomasi; lizing beruvchi tomonidan amalga oshirilgan lizing mulkiga texnik xizmat ko'rsatish shartnomasi; lizing ob'ektini sug'urtalash shartnomasi.
Ijro etilishi	Lizing mulkidan foydalanish, uni butligini saqlash va ishga yaroqli holatini saqlab turishga qaratilgan ishlarni bajarish,	Lizing kelishuvi va uskunalardan keyinchalik foydalanish munosabatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish.

1.2. Lizing to'lovlarini va lizingning moliyaviy samaradorligini aniqlash tartibi

Lizing to'lovlari o'z tarkibiga shartnomada ta'kidlangan mulkning to'la yoki qisman holdagi qiymatini hamda, ko'rsatilgan lizing xizmati va qo'shimcha servis xizmatlari to'lovini oladi.

Natijada, lizing beruvchida tijorat nuqtai-nazaridan lizing bitimi quyidagicha tusda bo'ladi:

Lizing beruvchining kelishuv asosidagi umumiy xarajatlari quyidagi tenglik bilan izohlanadi:

$$L_t = B_q + K_t + Q_t \quad (1.2.1)$$

K_t - kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov, so'mda;

Q_t - qo'shimcha xizmatlar uchun to'lov, so'mda;

B_q - lizing shartnomasi predmeti hisoblangan mulkning balans qiymati,

so'mda;

Lizing bitimi asosida lizing oluvchining lizing to'lovlari xarajatlari quyidagicha hisoblanadi:

$$L_t = A + K_t + K_{o_t} + Q_t + QQS + B_B \quad (1.2.2)$$

Bunda,

A-lizing beruvchida joriy yilda hisobga olinadigan amortizatsiya ajratmalari miqdor o'lchovi, so'mda;

K_{o_t} - lizing shartnomasi asosida lizing beruvchining komission mukofot puli, so'mda;

QQS - lizing beruvchi xizmatlari bo'yicha lizing oluvchi tomonidan to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i, so'mda;

B_B - bojxona boji, so'mda;

K_t - kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov, so'mda;

Q_t - qo'shimcha xizmatlari uchun to'lov, so'mda;

Ma'lumki, lizing beruvchining mulkdan foydalanish xarajatlari lizing to'lovlari asosida to'liq kompensatsiyalan-maydi, ya'ni qoplanmaydi. Kompensatsiya summasi shartnoma muddati va mulk amortizatsiyasi muddatiga bog'liq holda shartnomada oldindan belgilangan bo'ladi. Agar amortizatsiya muddati shartnoma muddatidan oshib ketsa, bunda mulkning amortizatsiya muddati tugashiga qadar lizing beruvchida qoldiq qiymatida o'z mulki bo'lib qolaveradi. Komission mukofot to'lovi lizing beruvchi xarajatlarini qoplash manbai bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bu aniq bitim bilan bog'liq emas va foyda manbaini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 avgust 2002 yil №PF-3122-sonli «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq hamda iqtisodiyot tarmoqlarini, xususan kichik va xususiytadbirkorlikni zamonaviy texnologiya uskunalari bilan jihozlashda, shuningdek, mamlakatimizning ishlab chiqaruvchilari tomonidan

tayyorlab chiqarilgan asbob-uskuna va texnikani sotishda lizing faoliyati rolini oshirish maqsadida chiqarilgan zaruriy me'yoriy hujjatimamalakatimizda lizing munosabatlarini rivojlantirishda yangicha bosqichni boshlab berdi.

Ushbu farmonga ko'ra 2002 yilning 1 sentyabridan boshlab lizing to'lovlari - qo'shilgan qiymat solig'idan, lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan texnologiya va uskunalari - vakil bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda boj to'lovlari va sotishga soliqlardan ozod qilindi.

Belgilab qo'yildiki, 2002 yilning 1 sentyabridan boshlab lizing oladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar lizingga berilgan mulkka soliq to'lashdan lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha ozod qilinadilar; lizing beruvchini soliqqa tortish chog'ida u lizingga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasi uning jami daromadidan chegirib tashlanadi.

Amaliyotda, tadbirkorlik faoliyatini yurituvchilar ko'pgina hollarda, bir-biriga muqobil darajada bo'lgan tanlovga duch keladi. Masalan, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun olinadigan uskunalarni moliyalashtirish samaralimi yoki bu uskunalarni ijaraga olib, ulardan foydalanish unumliroqmi? Ushbu masalanafaqat tadbirkorlar oldida, shuningdek uskunlarni ishlab chiqaruvchi oldidahamturadi. Mulk egasi uchun eng muhimi ijara to'lovlari hajmini belgilab olish va uskunalar ijarasining moliyaviy samaradorligini aniqlashdir. Ijaraga oluvchi esa, muqobil variantlar mavjud bo'lgan holda, o'zi uchun asosiy masalani, ya'ni uskunalarni ijaraga olishni yoki ularni xarid qilishni hal qilishi zarur. Ikkala masala ham sof moliyaviy tamoyillar asosida hal qilinishi mumkin. Bu borada qaysibir usuldan foydalanmaylik buning echimi pul oqimlarini bugungi o'lchamkonsepsiyasiga asoslanadi. Uskunalar uchun ijara haqi to'lovi quyidagicha aniqlanadi:

Aytaylik, **R** qiymatga ega bo'lgan uskuna **n** yilga ijaraga berilayapti. Uningqoldiq qiymati (ijara muddati oxirida) **S** ni tashkil etadi. Ijara to'lovlari oqimi vaqt omilini hisobga olgan holda eskirish qiymatiga teng bo'lishi lozim. Ijarato'lovi, yilda bir marotaba yilning oxirida to'lanadigan bo'lsa, uskunalar gasafarbar etilgan mablag'larni belgilangan me'yorda ta'minlovchi bir marotabali ijara to'lovi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$R = \frac{P - SV^n}{Ani} \quad (1.2.3)$$

bu erda,

R-yillik ijara to'lovi

R-uskunaning boshlang'ich qiymati

S-uskunaning qoldiq qiymati

Ani-yillik doimiy daromadni taqqoslash uchun keltiriladigan koeffitsient (bo'lajak daromadni belgilangan vaqtdagi bugungi qiymatini aniqlash koeffitsienti);

V-ko'paytiruvchi diskont.

Bunda ijara to'lovi uskuna qiymati, qabul qilingan daromadlilik me'yori (I) va ijara muddatiga bog'liq bo'layapti. Formulada ijara to'lovlari bir marotaba yil oxirida to'lanishi ko'zda tutilgan. U faqat uskunani ijaraga topshirishda ko'zlanga daromad me'yori asosida kelib chiqadigan hajmni aniqlab beradi.

Agar, ijara shartnomasida uskunani uning egasi tomonidan ta'mirlanishi ko'zda tutilgan bo'lsa, unda ushbu xarajatlar ijara to'lovida inobatga olinadi.

Hisob-kitobda inobatga olinayotgan daromadlilik me'yori albatta uskunani amortizatsiya me'yoridan yuqoriroq bo'lishi tabiiy holdir. Qabul qilingan daromadlilik me'yori (I) bilan amortizatsiya me'yori (a) farqi

Uskunaning samaradorligini baholash-usulining mohiyati shundan iboratki, bunda daromadlilik darajasi **murakkab foizlarning** yillik stavkasini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Bu erda birinchi navbatda uskuna uchun ijara to'lovlarikoeffitsenti aniqlanadi. Bu koeffitsent asosida yillik foiz stavkasi ko'rsatkichi(i) hisoblanadi.

Yilning oxirida bir marotaba to'lanadigan ijara to'lovlari uchun taqqosla koeffitsenti quyidagicha aniqlanadi:

$$A_{n;i} = \frac{P - SV^n}{R} \quad (1.2.4)$$

R-xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlarisiz ijara to'lovining summasi

Agar ijara shartnomasida uskunani ta'mirlash ko'zda tutilgan bo'lsa va ta'mirlash xarajatlari ijara to'lovi tarkibiga kiritilgan bo'lsa, unda uskunani sotib olish xarajatalari tarkibida ham taqqoslash uchun uskuna egasining ta'mirlashga sarflaydigan harajatlari hisobga olinadi. Diskontlash uchun ishlatiladigan foiz stavkasi kreditning bozor qiymatiga teng bog'liq bo'ladi. Bunda mulkga egalik huquqi lizing shartnomasini tuzish asosida o'rnatiladi. SHundan so'ng ushbu mulkdan foydalanishni davom ettiraveradi.

Amaliyotda, bulardan tashqari, qarz evaziga lizing munosabatlarini yo'lgaho'yish ham uchrab turadi. Bu esa moliyaviy lizingning shunday tipiki, unda ijaraga beruvchi mulk qiymatining bir qismiga kredit olib, lizing kontraktini olingan kredit garovi sifatida ishlatadi.

Ayrim iqtisodchilar² lizing oluvchi va lizing beruvchi tomonlarning o'zaro munosabatlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, lizingning ikki turini ajratadilar. **Birinchisi, to'g'ri, ya'ni bevosita** va ikkinchisi - bilvosita (**egri**) **lizing**. Agar mulk ishlab chiqaruvchi yoki uning egasi lizing beruvchi bo'lib xizmat qilsa bu bevosita lizing demakdir, agarda mulk ijaraga uchinchi

²Цай Т.Н., Грабовый П.Г., Марашда Бассали Сайл. Конкуренция и управление рисками на предприятиях в условиях рынка. М.«Алаис».

shaxs orqali berilsa, u holda bunday lizing bilvosita yoki egri lizingni tashkil etadi.

Kredit bilan ta'minlash uslubiga ko'ra muddatli va qaytariladigan lizingni ajratish mumkin. **Muddatli lizing bir marotabali ijara bo'lib**, shartnoma muddati tugagach, u egasiga qaytariladi. Qaytariladigan **ijara sharoitida esa** ijara bir necha marotabaga **beriladi**.

Ijaraga beriladigan ob'ektning xususiyatlaridan kelib chiqib **ko'char mulk lizingi** va ko'chmas mulk **lizingini** ajratishadi.

Odatda ko'chmas mulk lizingi qurilishda ishlatiladi. Bunday hollarda, lizing kompaniyalari, qurilishni kredit bilan ta'minlaydilar, so'ngra esa uni ko'chmas mulk lizingi tariqasida rasmiylashtiradilar.

Ko'chmas mulk ob'ektini lizing kompaniyasi quradi, jihozlaydi va o'z navbatida ushbu ob'ekt ishlatilishi evaziga olinadigan foydani ko'pgina qismiga ega bo'ladi. Ammo, ob'ektni o'zi emas, aksincha, ijaraga olingan firma yoki tashkilot ishlatadi.

Qurib bitkazilgan ob'ektni foydalanish uchun qabul qilib olgan mijoz, undan o'zi foydalanishi mumkin yoki bo'lmasa qisman uni ijaraga topshirishi ham mumkin.

1.3. Lizing shartnomasi va lizing ob'ekti bilan bog'liq risklar

Lizing munosabatlari lizing shartnomasini tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi. U yozma shaklda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladi. Agar lizing oluvchi jismoniy shaxs bo'lsa, lizing shartnomasi notarial tasdiqlanadi. Lizing shartnomasida odatda unga imzo chekilishi bilan, har oy, har yarim yilda go'lanadigan to'lovlar o'z aksini topadi. To'lov muddatlari lizing foydalanuvchisining ehtiyojlaridan kelib chiqqat holda belgilanshishi ham mumkin.

Lizing shartnomasining muddati tugagach, ijaraga olingan mulk ijaraga beruvchiga qaytariladi. Lekin, ko'p hollarda lizing shartnomasi ijaradan

foydalanuvchiga mulkni sotib olish yoki qaytadan lizing shartnomasini yangilashni, ya'ni qaytadan shartnomani tuzish imkoniyatini beradi.

«Lizing to'g'risida»gi qonunning 9-moddasiga binoan quyidagilar lizing shartnomasining muhim shartlaridan iborat:

- lizing ob'ektining tavsiflanishi (lizing ob'ektining miqdori, sifati, ro'yxati, kontrakt qiymati va boshqa ko'rsatkichlar) va shartnoma umumiy pul summasining ko'rsatilishi;
- taraflarning lizing ob'ektini olish va berish bilan bog'liq majburiyatlari,
- lizing ob'ektini berish tartibi, shu jumladan, lizing ob'ektini etkazib berish, montaj qilish va foydalanishga topshirish tartibi;
- lizing to'lovlarini to'lash shartlari, miqdorlari, muddatlari va tartibi;
- lizing ob'ektidan foydalanish, unga qarash, uni saqlab turish vata'mirlash yuzasidan taraflarning majburiyatlari;
- shartnomaning amal qilish muddati.

Taraflarning kelishuviga binoan lizing shartnomasiga quyidagi shartlar bitilishi mumkin:

- lizing ob'ektini (moliyaviy lizingda) sotib olish tartibi va muddatlari;
- lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish;
- lizing ob'ektini sug'urta qilish;
- fors-major holatlar;
- lizing beruvchi qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishi, bunday xizmatlarsiz lizing ob'ektidan foydalanib bo'lmasa;
- lizing sub'ektlari tomonidan lizing shartnomasi shartlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibi.

Lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish, agar qonun hujjatlarida va shartnomada boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, taraflar kelishuviga binoan amalga oshiriladi.

Lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida tuzilib, unga ko'ra lizing beruvchi lizing oluvchining topshirig'iga binoan lizing ob'ektini keyinchalik lizing oluvchiga berish uchun o'z mulki qilib

oladi. Taraflarning xohishiga ko'ra lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi lizing shartnomasi kuchga kirishishidan oldin yoki keyin tuzilishi mumkin.

Lizing operatsiyalari muayyan risklar bilan bog'liq. Bu risk (xavf)larni baholashda odatda quyidagi omillarni e'tiborga olish kerak:

- lizing oluvchi kompaniyaning tijorat obro'si va moliyaviy holati;
- ushbu kompaniya faoliyat yuritayotgan mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va fiskal, monetor siyosat (milliylashtirish riski, garovhuquqlarini tatbiq etilishdagi qiyinchiliklar riski va boshqalar);
- kelushuvnoma hajmining sotish narxi va keyingi yillarda ikkilamchibozorda ushbu narxning o'zgarishi;
- lizing oluvchi firmaning lizing ob'ektidan foydalanish shartlari.

Lizingga oid bo'lgan risk qator omillarga bog'liq. Lekin ular tarkibidaikkita omil asosiydir.

- lizing kelishuvnomasining sifati;
- uskunalarni etkazib berish muddatlarining buzilishi.

Lizing munosabatlari ushbu munosabat ishtirokchilari (lizing beruvchi, lizing oluvchi, ishlab chiqaruvchi) o'rtasidagi manfaatlardan kelib chiqadi.

Lizingning vujudga kelishi ishtirokchilar manfaatlarining kelishuvini talabqiladi. Manfaatlar mos tushgan holdagina lizing munosabatlari o'rnatiladi.

Demak, lizingi rivojlantirishning asosiy omillaridan biri ob'ektiv ravishda lizingishtirokchilari manfaatlarini keltirib chiqarish, ularni kelishuv muhitiniyaratishdir.

O'zbekiston iqtisodiyotida lizing oluvchilar mavjud bo'lsa, ammo yangi texnologiyani ishlab chiqaruvchilar, lizing kompaniyasi sifatida xizmat ko'rsatadigan va o'z moliyaviy mablag'lariga etarli darajada ega bo'lgan tashkilotlar etarli emas. Bu esa, o'z navbatida ushbu jihatdan kerakli bozor infratuzilmasini yaratish, rivojlantirish, takomillashtirish va uning asosida lizing munosabatlarining ob'ektivligini ta'minlashni talab etadi.

«Lizing to'g'risida»gi qonunning 19-moddasida lizing ob'ekti bilan bog'liq xavflar haqida quyidagilar bayon etilgan. Lizing ob'ekti bilan bog'liq

barcha xavflar, shu jumladan, uning tasodifan yo'qolishi (nobud bo'lishi) yoki tasodifan buzilishi, shuningdek, o'g'irlanishi, barvaqt eskirishi, shikastlanishi xavflari lizing shartnomasida nazarda tutilgan tartibda lizing oluvchiga o'tadi. Xavflar lizing oluvchiga o'tgan daqiqadan e'tiboran lizing oluvchi lizing ob'ekti har qanday tarzda yo'qotilishi yoki shikastlanishi uchun lizing shartnomasi amal qilinadigan muddat davomida javobgar bo'ladi. Agar xavflar lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tadigan vaqt lizing shartnomasida belgilangan bo'lmasa, xavflar lizing oluvchiga u lizing ob'ektini olgan daqiqadan e'tiboran o'tadi.

Agar taklif etilgan lizing ob'ekti lizing shartnomasiga mos kelmasa va bu uning oluvchiga lizing ob'ektidan voz kechish huquqini bersa, ana shunday nomuvofiqlik bartaraf etilgunga qadar yoki lizing oluvchi lizing ob'ektini olgunga qadar barcha xavflar lizing beruvchi zimmasida bo'ladi. Sotuvchining nochorligi yoki lizing ob'ektining undan foydalanish maqsadlariga nomuvofiqligi zaiflari lizing oluvchining zimmasida bo'ladi, lizing beruvchining sotuvchini e'ki lizing ob'ektini tanlash yoxud lizing beruvchi lizing oluvchini muayyan sotuvchini yoki lizing ob'ektini tanlashga g'ayriqonuniy tarzda majburlash turi bundan mustasno.


Nobud bo'lish, yo'qolish, o'g'irlash, shikastlanish, buzilish va barvaqt eskirish xavfi bilan bog'liq bo'lgan tarzdagi har qanday etkazilishi mumkin bo'lgan zarardan lizing ob'ektini sug'urtalash taraflarning kelishuvchiga binoan amalga oshiriladi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda, lizing oluvchi lizing ob'ekti sug'urtasi uchun javobgar bo'ladi.

Lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchi to'laydigan lizing to'lovlari lizing ob'ekti amortizatsiyasining tegishli qismi qiymatini va lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi tomonidan qilingan xarajatlarni, shuningdek, uning daromad (marja)ni o'z ichiga oladi.

Lizing to'lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo'lib-bo'lib to'lanadi. Lizing to'lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi.

Lizing operatsiyalarining amalga oshirishning asosiy afzalliklaridan biri mablag'larni qaytarmaslik xavfini anchagina pasaytirilishidir, chunki lizingoluvchi lizing to'lovlarini qaytarib bermasa lizing kompaniyasi asbob-uskunalarni boshqa mijozlarga berish uchun olib qo'yishi mumkin.

Oldi-sotdi shartnomasi



O'z navbatida, lizing tufayli korxonalar asosiy fondlarini tez sur'atlar bilan yangilab turishi, yangi texnologiyalarni joriy etish va ular tufayli raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish va shu bilan iqtisodiy o'sishni tezlashtirish imkoniyatlarini qo'lga kiritadilar.

«O'zbeklizing interneynshnl AJ» tajribasidan lizing muddati ikki yildan besh yilgacha bo'lishi rivojlashtiriladi, chunki bu erda moliyaviy lizing o'z ifodasini topadi. Lizing muddati tugagach asbob-uskuna lizing oluvchining mulkiga aylanadi va uni qaramog'iga o'tadi. Alohida shuni ta'kidlash joizki, bunda asbob-uskunani tanlash javobgarligi lizing kompaniyasi zimmasida bo'lmaydi. Ushbu masalada mijozlarga maxsus bozor tuzilmalari «Texnoinvest» qo'shma korxonasi muassislardan biri bo'lmish tashqi savdo faoliyati sifati va ekspertizasini nazorati bo'yicha jahon etakchisi SHvetsariyaning SGS kompaniyasi, tovar ishlab chiqaruvchilar va savdo palatasi, injiniring va konsalting firmalari yordam ko'rsatadilar.

«O‘zbeklizing interneyshnl AJ» - O‘zbekiston bozorida birinchi yirik xalqaroda lizing kompaniyasi, shuning uchun ham ushbu kompaniya misolida lizing operatsiyalarini o‘tkazishning xalqaro tajribasini - dastur mahsulotlarini ishlatishi, lizing loyihalarini tayyorligi va monitoringini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Odatda, xorijiy asbob-uskuna ishlab chiqaruvchining omborida bo‘lmaydi, uni talab asosida tayyorlash ko‘zda tutiladi. Buning uchun esa oldindan to‘lov o‘tkazilishi xorijiy bankda akkreditiv ochilishi lozim bo‘ladi. 1-1.5 oyda ishlab chiqarishga, bir oyga yaqin vaqt ichida transportda tashib keltirishga, yana shuncha vaqt montaj qilishga, ishga tushirish va xodimlarni o‘qitishga ketadi. Umumiy hisobda 4-5 oy kerak bo‘ladi. Jami ushbu muddat davomida narx tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ekspertizasiga mos kelishini ko‘zda tutish zarur bo‘ladi. Bundan tashqari loyihani tanlashga, biznes rejani tayyorlashga, shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazishga ketadigan vaqtni ham inobatga olishga to‘g‘ri keladi.

Kompaniyaning ishni tashkil etishdagi asosiy vazifasi - bu eng barqaror, to‘lovga qobiliyatli, boshlang‘ich kapitalga ega korxonalarni tanlashdir. E‘tiborni o‘ziga jalb etadigan narsalardan yana biri bu loyihani mahalliy xom-ashyo bilan ta‘minlanishidir. Eng asosiysi, bozorda jiddiy marketing tekshiruvining mavjudligi va ishlab chiqarilgan mahsulotning xaridorgir bo‘lishidir.

II. BOB. PEDAGOGIK QISM

LIZING TO‘LOVLARI HISOB-KITOB VA ULARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI” MAVZUSINI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QITISH USULINI ISHLAB CHIQISH

2.1. Kasb-hunar kollejlarda “Investitsiya va lizing asoslari” fani bo‘yicha dars materiallarini tahlil qilish

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida lizing munosabatlarini rivojlantirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Investitsion faoliyatda lizingni qo‘llash ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirishda eng muhim vazifani ado etadi. Bu o‘z navbatida lizing munosabatlari jarayonini o‘rganish va uni O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Lizingni investitsiyalarni moliyalashtirishning yangi noana’naviy manbai sifatida qo‘llash mamlakatning texnik yuksalishini ta’minlab bera oladi.

«Investitsiya va lizing asoslari» kursida lizing munosabatlarining nazariy va huquqiy asoslari, uning mazmuni, mohiyati, lizing operatsiyalarining ishtirokchilari, ularning huquq va majburiyatlari, lizing ishtirokchilarining lizing munosabatlari bo‘yicha burchlari beriladi. Ushbu kursda lizing munosabatlarining jahon tajribasi, O‘zbekiston Respublikasida lizing institutlarining tarkib topishi, lizing munosabatlarining huquqiy asoslarining yo‘lga qo‘yilishi, lizing turlari, lizing shartnomalarining amalga oshirilishi, lizing ishtirokchilari munosabatlari, lizing opretsiyalari bo‘yicha lizing to‘lovlari tarkibi, ularni hisoblash usullari, lizing munosabatlari bo‘yicha o‘zaro iqtisodiy va moliyaviy jarimalar, lizingni O‘zbekiston iqtisodiyotida rivojlantirish hamda takomillashtirish muammolari va boshqa masalalar yoritiladi.

Lizing investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning muqobil usuli sifatida, bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning yangi noana’naviy manbai sifatida, bank kreditiga nisbatan qo‘yiladigan moliyalashtirish vositasi sifatida ko‘riladi hamda lizingning kredit munosabatlariga nisbatan va boshqa manbalar evaziga moliyalashtirishga nisbatan uning afzalliklari va

kamchiliklari ochib beriladi.

«Investitsiya va lizing asoslari» fanini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarga lizingning mazmuni, maqsadi, yo‘nalishi va istiqbollarini o‘rgatishdan iboratdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda fanning asosiy vazifasi lizingning mohiyati va mazmuni, investitsiya muhiti, xorijiy investorlarga nisbatan investitsiya siyosatining kelgusidagi yo‘nalishi, lizing faoliyatini muvofiqlashtirishni tashkil etish, uni rivojlantirish va shu yo‘nalishdagi ishlarni o‘rguvish hisoblanadi

Fanni o‘rganish ma’ruza va amaliy mashg‘ulot shaklida auditoriyada o‘tish usuli bilan auditoriyada olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashi amalga oshiriladi. Talabalar uchun mustaqil ta’lim kiritilgan, hamda uy vazifalarini bajaradilar. Ularning olgan bilimlari reyting tizimi asosida baxolanib, baholashning test-sinov, oraliq, joriy va yakuniy baholash usullari qo‘llaniladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

Mazkur o‘quv dasturida o‘quvchilarga amaldagi tarmoq ta’lim standartlari doirasida chuqur bilim hamda amaliy ko‘nikmalarni berish, o‘qitishning interaktiv uslublari, yangi avlod axborot kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuterlashtirilgan dasturlar qo‘llagan holda mashg‘ulotlarni nazariy, amaliy darslar ko‘rinishida tashkil etilib chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar berish maqsad qilib qo‘yilgan.

Alohida urg‘u fanlararo bog‘lanishga berilgan bo‘lib, bunda “Qimmatli qog‘ozlar bozori”, “Investitsiya va lizing asoslari”, “Moliya” fanlarida o‘tilgan mavzular fanni o‘zlashtirish uchun asosiy zamin bo‘ladi.

Fan bo‘yicha o‘quvchilarning bilimi bo‘yicha quyidagi talablar qo‘yiladi:

- Dastlabki iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lish;
- Iqtisodiy kategoriyalar, bozor iqtisodiyotiga o‘tish tamoyillarini bilish;
- Investitsiya va lizing haqida umumiy tushunchaga ega bulish ;

Fan bo‘yicha o‘quvchilarning ko‘nikmalari bo‘yicha quyidagi talablar qo‘yiladi:

- Investitsiya, ularning iqtisodiy mazmuni va mohiyatini anglash

- Investitsiya turlari va ularning moliya bozoriga kerib kelishi to'g'risida tushunchaga ega bulishi;
- Investitsiya va lizing munosabatlaridagi ishtirokchilar xaqida tushunchaga ega bulishlari;
- Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyot rivojidadagi to'tgan o'rini anglash;
- Investitsiya muxiti va siyosatini yuritish tartibini o'rganish taxlil qila olish ;
- «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini o'rganishi
- Qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalar qanday tartibda kerib kelishini tushinib etish.

Fan bo'yicha o'quvchilarning malakalariga qo'yiladigan talablar:

- Investorlar o'z investitsiyalarini samarali yunaltirishda nimalarga e'tibor berishlarini bilish;
- Qimmatli qog'ozlarning turlari bo'yicha investitsiya kiritishning samaradorligini anglash;
- Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi tavakkalchiliklar va ularni baholash
- Lizing munosabatlarini shakllanish jarayonini o'rganish;
- Lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibini o'rganish;

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatdan uzviyligi va ketma-ketligi.

Fanning o'qitilish semestri namunaviy o'quv rejadan kelib belgilanadi, fanning o'zlashtirilishi yaxshi samara berishini nazarda tutgan holda, uni umumkasbiy va maxsus fanlar asosiy mavzularini o'zlashtirilgandan so'ng, 2-3 kurslarda o'tilishi tavsiya qilinadi.

Dasturni amalga oshirishda o'quv rejada rejalashtirilgan fan bloklari kesimidagi fanlar tarkibi quyidagicha:

Umumta'lim fanlari: Iqtisodiyot asoslari.

Umumkasbiy fanlar: Iqtisodiyot nazariyasi, mikroiqtisodiyot, statistika, marketing va menejment asoslari, soliq tizimi, pul muomalasi va kredit, tadbirkorlik va biznes asoslari.

Mutaxassislik fanlari: "Birja ishi", "Qimmatli qog'ozlar bozori", "Moliya".

Fanni uslubiy jihatdan nazariy va amaliy mashg'ulotlar uzviyligi atrzida tashkil etilishi, bunda, nazariy darslarga fan dasturining 40%, amaliy darslarga esa 60% ajratilishi yaxshi samara beradi. Mashg'ulotlarning o'tilish ketma-ketligi mavzularning murakkablashish darajasi, ularning dolzarbligi va mantiqan bog'likligidan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi va fanning mavzuiy taqsimlanishida keltirildi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (multimediali kompyuter majmuasi, proektor, kodoskop)lardan, yangi pedagogik texnologiyalar (aqliy hujum, kichik guruhlariga bo'linib ishlash, keys-stadi, breyn-ring. ish o'yinlari, bahs-munozara, zanjir, shajara daraxti va boshqalar)ni qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Fanning mavzuiy taqsimlanishi

№	Fanning mavzulari nomi	Umumiy yuklama, soat							
		Xammasi	Darslar turlari bo'yicha soatlar taqsimoti (auditoriya yuklamasi)						Mustaqil ish
			Jami	Nazariy (ma'ruza)	Amaliy	Laboratoriya	Seminar	Kurs ishi	
1	Investitsiya, uning mohiyati, iqtisodiy mazmuni va turlari	4	2	2					2
2	Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati	6	4	2	2				2
3	Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari va usullari	8	6	2	4				2
4	Investitsiyalar samaradorligini baholash asoslari	10	6	2	4				4
5	Korxona asosiy fondlariga investitsiyalarning moliyaviy ta'minoti	12	8	2	6				4
6	Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish	10	8	2	6				2
7	Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi	10	8	2	6				2

	tavakkalchiliklar va ularni baholash								
8	Lizingning mohiyati va lizing operatsiyalari turlari	6	4	4					2
9	Lizing operatsiyalarini huquqiy tartibga solish	4	2	2					2
10	Lizing operatsiyalari ishtirokchilari uchun kafolatlar	6	4	2	2				2
11	Lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi	10	8	2	6				2
12	Lizing kelishuvlarining iqtisodiy-huquqiy tayyorgarligi va ularni asoslash	6	6	2	4				
13	Lizing operatsiyalari bo'yicha milliy va xorijiy tajribalar	6	4	2	2				2
Jami:		98	70	28	42				28

2. Fanning nazariy mashg'ulotlari mavzulari.

1-mavzu. Investitsiya, uning mohiyati, iqtisodiy mazmuni va turlari.

Investitsiya tushunchasi, uning mazmuni va iqtisodiy mohiyati. Investitsion faoliyat va uni tashkil etish asoslari. Investitsiya turlari, ularning o'ziga xos jihatlari.

2-mavzu. Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.

Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishning mohiyati. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari va usullari. Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish va ularning kafolatlanishi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solish.

3-mavzu. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari va usullari

Investitsion loyiha tushunchasi. Investitsion loyihani moliyalashtirish usullari va manbalari. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini jalb qilish.

4-mavzu. Investitsiyalar samaradorligini baholash asoslari

Investitsion loyihalar samaradorligi, uning mazmuni. Investitsion loyihalar samaradorligini tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari. Investitsion loyiha bo'yicha pul oqimlari hisobi. Investitsion loyiha qiymatining o'sishi va diskontlash mexanizmi. Investitsion loyiha samaradorligini baholash usullari.

5-mavzu. Korxona asosiy fondlariga investitsiyalarni jalb qilish

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida real investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari. Kapital qo'yilmalar tushunchasi va ularni moliyalashtirish tartibi. Kapital qo'yilmalarni amalga oshirishda uzoq muddatli kreditlarning ahamiyati. Korxona asosiy vositalarini yangilash, ta'mirlash va modernizatsiyalash uchun xarajatlarni moliyalashtirish.

6-mavzu. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish tushunchasi va uning iqtisodiy mazmuni. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish turlari, manbalari va usullari. O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish rivojlantirish va uning istiqbollari

7-mavzu. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi tavakkalchiliklar va ularni baholash

Investitsion faoliyatda tavakkalchilik va uning tasniflanishi. Investitsion faoliyat tavakkalchiligini pasaytirish usullari. Investitsion faoliyatda iqtisodiy tavakkallarni sug'urtalash. Bank tavakkalchiligining asosiy turlari va ularni taqsimlash.

8-mavzu. Lizingning mohiyati va lizing operatsiyalari turlari

Lizing tushunchasi va uning yuzaga kelishi. Lizing mohiyati. Lizing munosabatlarini shakllantirish jarayoni. Lizing bozorida operatorlar faoliyati. Lizing operatsiyalari turlari va shakllari.

9-mavzu. Lizing operatsiyalarini huquqiy tartibga solish

Lizingning iqtisodiy mazmuni va ta'rifi. Lizing to'lovlari mohiyati. Lizing operatsiyalarini soliqqa tortish tartibi. Lizing operatsiyalarini bojxona orqali tartibga solish.

10-mavzu. Lizing operatsiyalari ishtirokchilari uchun kafolatlar

Lizing kelishuvlari ishtirokchilari o'rtasida tavakkallarni taqsimlash mexanizmi. Lizing jarayonida turli tavakkallarni sug'urtalash. Lizing operatsiyalari qatnashchilariga kafolatlarni ta'minlash mexanizmi.

11-mavzu. Lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi

Lizing to'lovlari tarkibi. Lizing to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar. Annuitetlar usuli bo'yicha lizing to'lovlarini hisoblash. Sublizing va operativ lizing bo'yicha to'lovlarni hisoblash usullari.

12-mavzu. Lizing kelishuvlarining iqtisodiy-huquqiy tayyorgarligi va ularni asoslash

Lizing kelishuvini loyihalashtirish bo'yicha umumiy yondashuvlar. Lizing kompaniyasiga buyurtma berish. Lizing loyihasi biznes-rejasini tuzish usullari. Lizing kelishuvlaridagi majburiy shartnomalar.

13-mavzu. Lizing operatsiyalari bo'yicha milliy va xorijiy tajribalar

Lizing operatsiyalari bo'yicha xalqaro tajribalar. AQSH lizing bozori va uning rivojlanishi. EIH mamlakatlarida lizing bozori. O'zbekistonda lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollari.

3. Amaliy mashgulotlarning mavzusi.

2-mavzu. Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati

Iqtisodiyot rivojida xorijiy investitsiyalarning o'rni. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari va usullari. Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish va ularning kafolatlanishi.

3-mavzu. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari va usullari

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish usullari va manbalari Investitsion loyihalarni moliyalashtirish mablag'larini shakllantirish.

4-mavzu. Investitsiyalar samaradorligini baholash asoslari

Investitsion loyihalar samaradorligini tahlil qilish. Investitsion loyiha qiymatining o'sishi va diskontlash mexanizmi. Investitsion loyihalar samaradorligini oshirish.

5-mavzu. Korxona asosiy fondlariga investitsiyalarni jalb qilish

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalarga investitsiyalarni jalb qilish. Investorlarning korxona ta'sischilariga aylanishi. Korxona asosiy vositalarini yangilash, ta'mirlash va modernizatsiyalash uchun xarajatlarni moliyalashtirishda investitsiyalarning o'rni.

6-mavzu. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning ustunlik tomonlari. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish turlari, manbalari va usullari. O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish rivojlantirish va uning istiqbollari

7-mavzu. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi tavakkalchiliklar va ularni baholash

Investitsion faoliyatda tavakkalchilik va uning tasniflanishi. Investitsion faoliyat tavakkalchiligini pasaytirish usullari. Investitsion faoliyatda iqtisodiy tavakkallarni sug'urtalash. Bank tavakkalchiligining asosiy turlari va ularni taqsimlash.

10-mavzu. Lizing operatsiyalari ishtirokchilari uchun kafolatlar

Lizing operatsiyalarini tashkil etish va lizing operatsiyalari ishtirokchilari risklari va kafolatlar.

11-mavzu. Lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi

Lizing to'lovlari hisob-kitoblarini xisoblash tartibi. Lizing turlari bo'yicha xisob-kitoblari usullari.

12-mavzu. Lizing kelishuvlarining iqtisodiy-huquqiy tayyorgarligi va ularni asoslash

Lizing kelishuvini loyihalashtirish bo'yicha umumiy yondashuvlar. Lizing kompaniyasiga buyurtma berish. Lizing loyihasi biznes-rejasini tuzish usullari. Lizing kelishuvlaridagi majburiy shartnomalar.

13-mavzu. Lizing operatsiyalari bo'yicha milliy va xorijiy tajribalar

Lizing operatsiyalari bo'yicha xalqaro tajribalarni milliy bozorga qo'llash. Xalqaro lizing bozorlarining rivojlanishi . O'zbekistonda lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollari.

4. Mustakil ta'lim mavzulari.

1-mavzu. Investitsiya, uning mohiyati, iqtisodiy mazmuni va turlari

Investitsiyaning iqtisodiy mohiyati va investitsiya kiritilgan iqtisodiy soxalarning rivojlanish darajasi.

2-mavzu. Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati

Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishning ahamiyati. Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish va ularning kafolatlanishi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solish.

3-mavzu. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari va usullari

Investitsion loyiha tushunchasi. Investitsion loyihani moliyalashtirish usullari va manbalari. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini jalb qilish.

4-mavzu. Investitsiyalar samaradorligini baholash asoslari

Investitsion loyihalar samaradorligi baholash mexanizmi. Investitsion loyiha samaradorligini baholash usullari xususiyatlari.

5-mavzu. Korxona asosiy fondlariga investitsiyalarni jalb qilish

Kapital qo'yimalarni amalga oshirish va ularni moliyalashtirish tartibi. Kapital qo'yimalarni amalga oshirishda uzoq muddatli kreditlarning ahamiyati. Korxona asosiy vositalarini yangilash, ta'mirlash va modernizatsiyalash uchun xarajatlarni moliyalashtirish.

6-mavzu. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish turlari, manbalari va usullari. O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish rivojlantirish va uning istiqbollari

7-mavzu. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi tavakkalchiliklar va ularni baholash

Investitsion faoliyatda tavakkalchilik va uning tasniflanishi. Investitsion faoliyat tavakkalchiligini pasaytirish usullari. Investitsion faoliyatda iqtisodiy tavakkallarni sug'urtalash. Bank tavakkalchiligining asosiy turlari va ularni taqsimlash.

8-mavzu. Lizingning mohiyati va lizing operatsiyalari turlari

Lizing munosabatlarini shakllantirish va lizing operatsiyalarni amalga oshirish jarayoni. Lizing bozorida operatorlar faoliyati.

9-mavzu. Lizing operatsiyalarini huquqiy tartibga solish

Lizing operatsiyalarining huquqiy asoslari va ularni tartibga solish yo'llari.

10-mavzu. Lizing operatsiyalari ishtirokchilari uchun kafolatlar

. Lizing operatsiyalari qatnashchilariga kafolatlarni ta'minlash mexanizmini shakllantirish.

11-mavzu. Lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi

Lizing to'lovlari tarkibi. Lizing to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar.

12-mavzu. Lizing kelishuvlarining iqtisodiy-huquqiy tayyorgarligi va ularni asoslash

Lizing kelishuvini loyihalashtirish bo'yicha umumiy yondashuvlar. Lizing kompaniyasiga buyurtma berish. Lizing loyihasi biznes-rejasini tuzish usullari. Lizing kelishuvlaridagi majburiy shartnomalar.

13-mavzu. Lizing operatsiyalari bo'yicha milliy va xorijiy tajribalar

Lizing operatsiyalari bo'yicha xalqaro tajribalar. AQSH lizing bozori va uning rivojlanishi. EIH mamlakatlarida lizing bozori. O'zbekistonda lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollari.

5.Tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ko'rgazma-namoyish materiallari, o'kuv filmlari va boshqa didaktik materiallar ro'yxati

5.1. Ko'rgazmali vositalar ro'yxati

Kurs rejasiga kiritilgan barcha mavzulardagi masalalar bevosita zamonaviy kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi va plakatlari, albomlar, sxemalar hamda slaydlar yordamida tushuntiriladi.

5.2. Multimedia ilovalari

1. Fan bo'yicha ma'ruza matnlari to'plami, masalalar to'plami, tarqatma materiallar, tayanch so'z va iboralar, mavzular bo'yicha nazorat savollari va testlarni kompakt diskka yozish va undan foydalanish.

2. Ma'ruza darslarida foydalanish uchun taqdimot dasturlari (Power Point, Adobe Photoshop, 3D Max) muharririda yaratilgan mavzular bo'yicha elektron slaydlar multimedia tizimlari yordamida namoyish etiladi.

2.2. Kasb-hunar kollejlarda o‘quv jarayonini tashkil etishda ta’lim texnologiyalari metodlaridan foydalanish.

Kasb-hunar kollejlarda o‘quv jarayonini tashkil etishda ta’limning faol o‘qitish metodlaridan, ya’ni interaktiv metodlardan foydalanish ko‘proq samara bermoqda.


Innovatsion pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv (faol) metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Innovatsiya (inglizcha «Innovation») – yangilik kiritish, yangilikdir.

Texnologiya - biror ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan usullar, yo‘llar yig‘indisi (*Izohli lug‘at*).

Texnologiya – ishlov berish, ahvolni o‘zgartirish san’ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig‘indisi (*V. M. Shepel*).

«Innovatsion texnologiya»termini G‘arbda, Evropada, AKSHda 1960 yillarda paydo bo‘ldi.



- Pedagogik texnologiya – o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan xolda pedagogik muvaffakiyatni kafolatlay oladigan, o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (*V. P. Bepalk*).
- Pedagogik texnologiya – ta‘limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti. (*I. P. Volkov*).
- Ta‘lim texnologiyasi – didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi. (*M. CHoshanov*).

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o‘rganayotgan o‘quvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, ***pedagogik texnologiya*** – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq, hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan texnik vositalar, kompyuter, masofali o‘qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, ***pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi*** – bu o‘qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog‘liq deb hisoblaymiz, ya‘ni o‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har – bir ta‘lim texnologiyasi o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya‘ni o‘quv jarayonidagi ***pedagogik texnologiya*** – bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- O‘quvchi-talabaning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

- O'quvchi talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
- O'quvchi talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- Pedagog va o'quvchi talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'quvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya-bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan texnik vositalar, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har-bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Biz quyida kasb hunar kollejlarida "Mahsulot sifatini va mehnat unumdorligini oshirishda mehnat va ish haqi hisobining vazifalari" mavzusini o'qitishda quyidagi metodlardan foydalani taavsiya etamiz.


“Aqliy hujum” metodi

Aqliy hujum - g‘oyalarini generatsiya (ishlab chiqarish) qilish metodidir.”Aqliy hujum” metodi biror muammoni echishda o‘quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab,ular orqali malum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir . Aqliy hujum metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga o‘quvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi.O‘quvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar.

“Aqliy hujum” metodi o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

- 1 O‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda,bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
- 2 Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda – yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
- 3 O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda – mavzudan so‘ng darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

Quyidagi rasmda “Aqliy xujum”metodning tarkibiy tuzilmasi keltirilgan .



SWOT- universal tahlil qilish metodi

Ushbu metod maqsadlarda qo'llaniladigan metodlardan biri xisoblanadi. Uning nomi inglizcha so'zlarning birinchi xarfidan olingan bulib, **Strengths**- kuchli tomonlar, **Weaknesses**- kuchsiz tomonlar yoki muammolar, **Opportunities**- tashqi imkoniyatlar, **Threats**-tashqi muxitda mavjud xavf-xatarlar.

SWOT – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:

Strengths – kuchli tomoni, korxonada ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;

Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi;

Opportunities – imkoniyatlar; korxona rivojlanishi uchun tashqaridagi mavjud imkoniyatlar;

Threats – xavflar, tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

SWOT-tahlil jadvali

S	W
O	T



Qoidaga ko'ra, SWOT – tahlil muvaffaqiyat tashkilotga bog'liq bo'lmay, balki kelgusidagi strategic maqsad va loyihalarni iishlab chiqishda uning natijasi hisobga olinishiga bog'liq bo'ladi. Uni qo'llashda elementlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:


“Nima uchun”

“Nima uchun” sxemasi-muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

“Nima uchun” sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. “Nima uchun” so'rog'ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi.

1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
2. CHizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chiziqli emasligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.



“BAHS-MUNOZARA” METODI.



Bu metod yordamida o‘quvchilarga muayyan muammo bo‘yicha to‘liq axborotlar etkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o‘quvchilar ayovsiz “shturm” qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma’lumotlarni atroflicha o‘rganadilar


Bahs-munozara – o‘quvchilarni ikki guruhga bo‘lgan holda, biror mavzu bo‘yicha o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda, Ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs munozarani boshqarib borish vazifasini o‘quvchilarning biriga topshirish mumkin. Bahs-munozarani erkin holda olib bori shva har bir o‘quvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda o‘quvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

"CHARXPALAK" metodining tuzilmasi:

1. O‘quvchilar 2 ta guruhlariga ajratiladi, ular «O‘quvchilar» va «O‘qituvchilar» guruhi deb nomlanadi, hamda alohida-alohida joylashtiriladi.
2. Savollarni ishlab chiqish.
3. «O‘quvchilar» guruhiga savollar berish va javobni baholash.
4. «O‘quvchi»lar guruhining o‘qituvchi guruhiga o‘tishi.
5. «O‘qituvchi» guruhining savoliga javob berishi.
6. Baholarni umumlashtirish va e‘lon qilish.

«Charxpalak» metodi qo‘llanilganda guruh 2 ta kichik guruhlariga ajratib olinadi. Misol uchun guruhda 12 nafar o‘quvchi deylik. Ushbu o‘quvchilar 1,2 deb sanaydilar. SHu tartibda 1 deganlar bir tarafga, 2 deganlar ikkinchi tarafga ajraladilar. Bu guruhlar o‘qituvchi va o‘quvchi rollarida ishtirok etadilar. O‘quvchi roliga ishtirok etadigan 6ta o‘quvchining ko‘kragiga 1,2,3,4,5,6 raqamlari yozilgan

nishonlar to‘na-ich yordamida taqiladi. Stollar aylana shaklda joylashtirilgan bo‘lib, uning ichki tomonida 6 ta o‘qituvchi o‘tiradi. Stolning tashqari tomonida esa 1,2,3,4,5,6 raqamli o‘quvchilar o‘tiradilar.



Bu metodda har bir o‘quvchi stol atrofida soat strelkasi yo‘nalishida birin-ketin o‘qituvchi yonidan o‘tadilar va o‘qituvchining bergan savollariga 2 daqiqa ichida javob beradilar.

Stolning ichki tomonida o‘tirgan 6 nafar «O‘qituvchilar» guruhi o‘quvchilarning har birini baholaydilar .

Keyingi bosqichda “o‘qituvchi”-“o‘quvchi” va “o‘quvchi”-“o‘qituvchi” guruhlari o‘rinlariga almashinadi. Ushbu bosqichda ham xuddi shu tartibda jarayon davom etadi. Endi o‘quvchilar ko‘kraklariga o‘zlariga tegishli bo‘lgan 1,2,3,4,5,6 raqamli nishonlarni taqib oladilar. Stolning ichki tomonida o‘tirgan o‘qituvchilar o‘quvchilarning bergan javoblarini baholaydilar va baholash varaqasiga belgilab boradilar. SHu tariqa barcha o‘quvchilar baholanadilar. O‘qituvchi kuzatib boradi.

ESSE

Esse – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha so‘z hajmidagi insho.

Esse – bu muallifning ta’kidlab o’tadigan individual pozitsiyasidagi erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet bo’yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o’z ichiga oladi.

Besh daqiqalik esse

Besh daqiqali esse – o’rganilayotgan mavzu bo’yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o’quv mashg’ulotida oxirida 5 daqiqa oralig’ida olib boriladi.

O’qituvchi taklif etishi mumkin:

- «Men bu ... haqida nimani o’ylayman» yoki «Nima uchun, mening fikrimga ko’ra ...» savollariga javob bering;
- o’quv mashg’ulotida berilgan talabalar uchun yangi sanalgan g’oyani tavsiflash va sharhlab berish;
- olingan bilim, ko’nikmalar qaerda amaliyotda qo’llanilishini tavsiflash.

Ushbu ko’rinishdagi esse baholanmasligi ham mumkin. Ammo, o’qituvchi juftliklarga ajralish, ishlar bilan o’zaro almashish va yozilganlarni muhokama qilish taklifini berishi mumkin. Ushbu holda o’qituvchi 2-3 ta essenini tanlab tekshirishi mumkin, ularni ovozini chiqargan holda sharhlashi, talabalar bilan muhokama qilishi va xulosa qilishi mumkin.

Asoslangan esse

Asoslangan esse - qo’yilgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdir. Muallif ma’lum bir pozitsiyani egallaydi va uni himoya qiladi, bunda o’zining pozitsiyasini qo’llab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. Maqsad – muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishontirish.

☞ *Asoslangan samarali essenini yozish engil bo‘ladi, qachonki siz kitobxonlarga o‘zingizning esseingizni yozish jarayonida uni fikriy jihatdan taqdim etsangiz va ular bilan fikriy muloqotni o‘rnata olsangiz.*

Asoslangan esse tarkibi

(1) Savol bo‘yicha nisbatan muallif nuqtai nazarining bayon etilishi (1 xat boshi)

(2) Bayon etilgan pozitsiyani asoslash – ushbu pozitsiyani qo‘llab-quvvatlashni muallifning ishonarli dalillari, ushbu pozitsiyani qabul qilishga ishontirish.

(3) Xulosa- rezyume

☞ **Asoslangan essenini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari**

- mavzu mazmuniga mos kelishi;
- mazmuni, fikri;
- unga taaluqli muammoni oldindan ko‘ra bilish, shaxsiy nuqtai nazari, ma’lumotlar etarliligi;
- uslub: ifoda aniqligi, muayyanligi;
- orfografiya

☐ «Menimcha mamlakatimiz iqtisodi gullab yashnaydi, agarda ... » mavzusida asoslangan esse yozing.

TAQDIMOT (XABAR BERISH)

Taqdimot – o‘quv (ilmiy) ish haqida og‘zagi ravishda habar berish.

Taqdimot o‘tkazish shakllari:

- Interfaol dialog (masalan, konsalting firmasi – kompaniya vakillari)
- Barcha guruh ishtiroqchilari so‘zga chiqadi
- Guruh boshlig‘i so‘zga chiqadi

- gapirayotganingizda doimo ishonchli bo'ling;
- aniq, buro gapiring;
- fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg'u berib ajratgan holda ifoda eting;
- bir maromda va asta gapirmang, ammo nisbatan qattiq gapirmang ham;
- hushmuomali va ziyran bo'ling, jahldor bo'lmang;
- doimo kulib turgan holda boshlang va tugating, ammo bunga ortiqcha harakat qilmang;
- quyidagi so'z birikmalarini qo'llamang: «Mumkin bo'lsa», «Uni Kim biladi?», «Mumkin ... » va shu kabilar. Bu kabi jumlar sizning chiqishingizda o'ziga ishonchlilik bo'lmaslikni keltirib chiqaradi va natijada siz o'zingizga ishonchni yo'qotasiz:
- ko'rish kontakti (bog'lanishi) ni saqlashga harakat qiling – tinglovchilarga qarashga harakat qiling (har bir qatnashchiga 3 sekunddan);
- oyoqni chalishtirmang, qo'lni orqada ushlamang, stol, minbarga tayanmang, kuchli imo-ishora qilmang, ruchka, markerni o'ynatmang, elpig'ich, qog'oz bilan elpimang va shu kabilar;
- har bir javob va taklifni doimo rag'batlantiring.

Taqdimot qoidasi

- *CHiqish reglamentiga rioya qilish*
- *CHiqish navbatiga rioya qilish*
- *guruh a'zolari o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash va ular xatti-harakatida kelishuvga erishish*
- *ma'lumotlar grafik ko'rinishida (sxema, jadval, grafik) to'qdim etilishi lozim bo'ladi;*
- *har qanday grafik ko'rinishidagi ma'lumot sharhlanishi talab etiladi.*



Taqdimotda nimaga yo‘l qo‘yilmaydi:

- holatni tasvirlash va uni qayta so‘zlab berishga;
- ishtirokchilarning so‘zga chiqishlaridagi qarama-qarshiliklarga;
- tushunarsiz, noaniq, o‘rinsiz iboralarga.

🕒 O‘ylab ko‘ring va guruhda taqdimotni baholash ko‘rsatkichlari va mezonlarini muhokama qiling.

Taqdimotni muvaffaqiyatli o‘tkazish qoidalari va sirlariga asoslanib o‘z ish natijalaringiz taqdimotini o‘tkazing.

2.3. “Lizing to‘lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi” mavzusini ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitishning namunaviy dars rejasini ishlab chiqish

Mavzu: Lizing to‘lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi

Darsning ta’limiy maqsadi: **Interaktiv metodlardan foydalanib o‘quvchilarda lizing to‘lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibining asosiy yo‘nalishlari haqidagi bilimlarni shakllantirish.**

Darsning tarbiyaviy maqsadi: **O‘quvchilar mashg‘ulot davomida mustaqil fikrlash, shaxsiy yondoshuvlarni asoslay olish, shuningdek tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantirish.**

Rivojlantiruvchi maqsad: **O‘quvchini kasbga qiziqtirish, kasbiy bilimi va estetik didini rivojlantirish**

Kutilayotgan natijalar:

1. **Lizing to‘lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi haqida tushunchaga ega bo‘lishadi.**
2. **Lizing to‘lovlari tuzilmasi va harakati to‘g‘risida tavsif bera oladilar.**

3. Lizing to'lovlarini normalashtirish to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

4. Korxonaning lizing to'lovlari mablag'larining oborot davri, rentabelligi, buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari bo'yicha tushunchaga ega bo'ladilar.

5. Lizing to'lovlaridan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llarini o'rganishadi.

Darsda qo'llaniladigan metodlar: "Charxpalak", "qora quti".

Ta'lim vositalari: Kodoskop, mavzuga oid slaydlar, plakatlari, mavzu yuzasidan tarqatma materiallar.

1. Ma'ruzada ta'lim texnologiyasi

O'quv soati: 2 soat	Talabalar soni: 24 ta
O'quv mashg'ulotining shakli	Mutaxassis (ekspert) ishtirokidagi ma'ruza
Mavzu rejasi	1. Lizing to'lovlari tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxona faoliyatidagi ahamiyati. 2. Lizing to'lovlarining tuzilmasi va harakati hamda ularning korxona iqtisodiyotiga ta'siri. 3. Lizing to'lovlari normalashtirish. 4. Lizing to'lovlaridan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari.
Mashg'ulotning maqsadi: Lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxona faoliyatidagi ahamiyati, ularning tuzilmasi va harakati hamda ularning korxona iqtisodiyotiga ta'siri, aylanma mablag'larni normalashtirish, ulardan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar: - Lizing to'lovlari tushunchasi,	O'quv mashg'ulotining natijalari: - Lizing to'lovlari tushunchasi, iqtisodiy tabiati

iqtisodiy tabiati va ularning korxona faoliyatidagi ahamiyatini tushuntiradi. - Lizing to'lovlarining tuzilmasi va harakati hamda ularning korxona iqtisodiyotiga ta'siri aniqlashtiradi. - Lizing to'lovlarini normalashtirishni tushuntiradi. - Lizingdan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llarini tushuntiradi.	va ularning korxona faoliyatidagi ahamiyatini tushuntira oladi. - Lizing to'lovlarining tuzilmasi va harakati hamda ularning korxona iqtisodiyotiga ta'sirini aniqlay oladi. - Aylanma mablag'larni normalashtirishni tushuntira oladi. - Lizing to'lovlaridan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llarini tushuntira oladi.
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tezkor-so'rov, «ekspert so'rovi» metodi, tahlil
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter texnologiyalari, format qog'ozlari, markerlar, skotch, chizmalı organayzerlar.
Ta'lim shakllari	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash.

**«Lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibi» mavzusi
bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi**

Faoliyat bosqichlari	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchining	Talabanning

I. Kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1.Mavzuni nomi, maqsadi, kutilajak o‘quv natijalarini va mavzu rejasini eslatadi. 1.2.O‘tgan mashg‘ulot bilan mantiqiy bog‘laydi. Mustaqil ish uchun berilgan vazifani ya’ni insert texnikasini qo‘llab mavzuning qolgan rejalarini o‘rganib kelish vazifasi berilganligini eslatadi.	Tinglaydilar.
II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1.Faollashtirish va bilimlarini tekshirish maqsadida bir qancha savollar beradi: - Lizing to‘lovlarilar ishlab chiqarish aylanma fondlaridan qanday farq qiladi? - Lizing to‘lovlarlarni tashkil qiluvchi asosiy elementlar qaysilar? - Lizing to‘lovlarlar tuzilmasi deganda nima tushuniladi? qaysi omillar uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi? Javoblarni umumlashtiradi. Diqqatini asosiy tushunchalarga qaratadi. Zarur bo‘lsa javoblarni aniqlashtiradi, qo‘shimchalar qiladi, o‘zgartirish kiritadi. 2.2.Keyingi faoliyat kichik guruhlarda davom etishini e’lon qiladi. Talabalarni 5 ta guruhga bo‘ladi. 2.3. Ushbu mavzu bo‘yicha qo‘shimcha o‘quv materialini tarqatadi va tanishib chiqishni taklif qiladi. SHu bilan birga bu masalalarni echib, ish bilan ta’minlash ta’sirini aniqlashni taklif qiladi. Guruhlarda berilgan vazifalarni muhokamasini tashkil qiladi. 2.4.Boshqa vazifa beradi: Format qog‘oziga aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish	Berilgan savollarga javob beradilar. Fikr almashadilar. Berilgan vazifalar ni bajaradilar. Masalalarni echib, har bir guruh berilgan format qog‘oziga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning ta’sirini qayd qiladi. Ikkinchi vazifani bajaradilar. Format qog‘oziga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning yo‘llarini yozib chiqadilar. O‘z ishlarini olib

	yo'llarini ishlab chiqishadi. Guruhlar faoliyatini kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi. 2.5.Guruh ishlarini taqdimoti boshlanishini e'lon qiladi. Guruhlar ishini tahlil qiladi, qo'shimchalar kiritadi, to'ldiradi, umumlashtiradi.	chiqib, taqdim qiladilar. Bir-biriga berilgan savollarga javob beradilar.
III. YAkuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1.Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy mohiyatiga qaratadi. 3.2.O'quv mashg'ulotining natijalarini qayd qiladi. Talabalar mustaqil faoliyatining maqsadga erishganlik darajasini tahlil qiladi va baholaydi. 3.4. Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi: (1) seminar mashg'ulotiga mustaqil tayyorlanishlari uchun savollar (2-ilova)	Eshitadilar. Vazifani yozib oladilar.

Ma'ruzada talabalarning faolligi uchun qo'yiladigan ball:

“A'lo” – 2 ball

“YAxshi” – 1.4 ball

“Qoniqarli” – 1 ball

“Qoniqarsiz” – 0.5 ball

Dars jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar:

Lizing to'lovlari hisob – kitobi va ularni amalga oshirish tartibi mavzusi bo'yicha umumiy obzorni tashkil etish.

Kichik guruhlar tashkil etgan holda faol o'rganishni tashkil etish ("Charxpalak" metodi asosida).

«Qora quti» metodidan foydalanib talabalarning mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash va baholash.

Darsning borishi.

Tashkiliy qism: **Salomlashish, davomatni aniqlash va xonaning sanitar-gigienik holatini tekshirish. Mashgʻulot mavzusi va kutilayotgan natijalarni bayon qilish.**

Yangi mavzuni bayoni:

Mavzu. Lizing toʻlovlari hisob – kitobi va ularni amalga oshirish tartibi

1. Lizing toʻlovlari tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxona faoliyatidagi ahamiyati

Lizing toʻlovlari hisob – kitobi va ularni amalga oshirish tartibi va boshqa aktivlardagi pul mablagʻlaridir.

Ishlab chiqarishni qayta boshlash uzluksizligini taʼminlash uchun korxona tasarrufida bor boʻlgan resurslar bir maromda bir shakldan ikkinchisiga (puldan ishlab chiqarish, ishlab chiqarishdan tovar va nihoyat, tovardan pul shakliga) oʻtishi va normadan ortiqcha toʻplanib qolmasligi kerak.

Bu koʻrsatkichdan biznes - rejalarni tuzishda va aylanma mablagʻlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda keng foydalaniladi.

«Qora quti» metodidan foydalanib oʻquvchilarning mavzuni qay darajada oʻzlashtirganliklarini aniqlash.


Ushbu metod yordamida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: oʻquvchilar juftliklarga birikadilar va aylanma mablagʻlarning aylanishini tezlashtirishning asosiy yoʻnalishlari mavzusi mohiyatini yorituvchi asosiy tushuncha va elementlarni kartochkalarga qayd etish soʻraladi. **Foyda, bank kreditlari. tijorat, aksiyadorlik (ustav) kapitali, byudjet mablagʻlari, qayta taqsimlangan resurslar (sugʻurta), kreditorlik qarz va boshqalar.**

SHundan soʻng oʻqituvchi topshiriqning guruhlar tomonidan qanday bajarilganligini tekshiradi, uni toʻgʻri bajargan juftlikning bir aʼzosi oʻqituvchi rolini bajaradi va yozuv taxtasiga oʻzi belgilagan tushunchalar yoki tayanch iboralardan yozadi.

Soʻngra oʻquvchilardan Ushbu savollarga javob berishlarini soʻraydi. Toʻgʻri javob bergan oʻquvchi oʻqituvchi rolini ijro etadi. Bu hol bir necha marotaba davom ettirilishi mumkin.

Oʻqituvchi oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajalarini aniqlash maqsadida dars yakunida aylana shaklda berilgan 3 xil variantdagi chizmalarni doskaga osadi. Qosh, koʻz, burun, ogʻiz, aks ettirilgan chizmalarning 1- shaklida insonning gʻamgin, xafa holati, 2- shaklda oʻrtacha quvnoqlikdagi holati, 3-shaklda esa juda xursand kayfiyatda turgan holatlar aks ettiriladi. Oʻqituvchi oʻquvchilarning oʻzlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida ushbu shakllar yoniga belgilar qoʻyishni taklif etadi. 1-holatdagi shaklga "Tushunmadim", 2-holatdagi shaklga "Oʻrtacha tushundim", 3-holatdagi shaklga esa "Juda yaxshi tushundim" deb yozilgan boʻlib, oʻquvchilar egallagan bilim va koʻnikmalariga tayangan holda ushbu shakllardan birini tanlaydilar va belgi qoʻyadilar. Ushbu natijalarga asoslanib oʻqituvchi oʻziga xulosa chiqaradi. Masalan, 1- holatdagi "Tushunmadim" shakliga belgilar koʻp qoʻyilgan boʻlsa, oʻqituvchi dars berish metodini oʻzgartirishi lozim. 2-holatda oʻqituvchi darsni takrorlashiga toʻgʻri keladi. 3- holat oʻqituvchi qoʻllayotgan metodning samaraliligidan dalolat beradi.

YAkuniy qism. Baholar eʼlon qilinadi, yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, uyga topshiriq beriladi.




Tushunmadim

+

-

-




Oʻrtacha tushundim

+

+

-



Juda yaxshi tushundim

+

+

+

III-BOB. MEHNAT VA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 21 dekabrda 161-1 raqamli O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqladi. Respublikamizda mehnatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida» gi qonunda mustahkamlangan. Ushbu qonun ishlab chiqarish usullari, mulk shaklidan qat'iy nazar korxonalarda muhofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi hamda fuqarolarning sog'ligi va mehnatini muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan. **Mehnatni muhofaza qilish** – bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya- gigiena va davolash profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

3.1. Ish va dam olish tartibi.

Dam olish va ish jarayoni to'g'ri takrorlanib turishi shikastlanishlar oldini olishning birdan bir asosiy shartidir.

Kishining ish qobiliyati uning sezgirlikligiga, ishlab chiqarishdagi har xil xavfli va zararli omillarga ta'sirchanligiga, ish jarayonining uzluksizligiga bog'liq.

Agar kishi kun mobaynida uzluksiz ko'rsatilgan vaqtdan ortiqcha ishlasa, unda jismoniy charchash bilan bir qatorda ruhiy charchash ham paydo bo'lishi mumkin. Buning ustiga ishchiga uzoq vaqt mobaynida juda ko'p qarorlar qabul qilish yoki juda ko'p asboblarning ko'rsatkichlariga qarash to'g'ri kelsa, unda ruhiy charchash jismoniy charchashdan oldin kelishi mumkin. Ish joyida shovqin, titrash, gaz, chang va nurlanishning bo'lishi ruhiy charchashni tezlashtiradi va kishining noto'g'ri harakat qilishiga, shikastlanishiga yoki avariya holatiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ma'muriyat ish va dam olish tartibiga qat'iyan rioya qilishi kerak.

Mehnat kodeksining 115-moddasiga asosan xodim uchun ish vaqti haftasiga

40 soatdan oshmasligi kerak. Ya'ni ish tartibi haftasiga besh ish kunida ikki dam olish kuni yoki haftasiga olti ish kunida bir dam olish kuni bo'lishi kerak. Ish vaqtining davom etishi (smena) olti ish kunlik ish haftasida etti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa sakkiz soatdan oshmasligi lozim. Bayram kunlari (131-modda) arafasida kundalik ish (smena) muddati barcha xodimlar uchun kamida bir soatga qisqartiriladi (121-modda). Agar xodim uchun belgilangan kundalik ish (smena) muddatining kamida yarim tungi vaqtga to'g'ri kelsa, tungi ish muddati bir soatga, ish haftasi muddati ham shunga muvofiq ravishda qisqartiriladi. Soat 2200 dan to soat 600 gacha bo'lgan vaqt tungi vaqt hisoblanadi (122-modda).

O'smirlar mehnatini muhofaza qilish

Respublikamizda yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish, ularni ishga joylashtirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. O'smirlarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar O'zbekiston Konstitutsiyasi 239-moddasida quyidagicha qayd etilgan.

O'smirlar doimiy ishga 16 yoshdan qabul qilishga ruxsat etiladi, ayrim hollarda 15 yoshga to'lgan shaxslar ota-onasidan birining roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin.

Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollej o'quvchilarini 14 yoshga to'lganlaridan keyin ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning roziligi bilan o'smirlarning sog'ligiga va kamol topishiga ziyon etmaydigan va ta'lim olish jarayonini buzmaydigan engil ishlarni, o'qishdan bo'sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi. (77-modda).

16 dan 18 yoshgacha o'smirlar uchun bir ish haftasidagi ish soati 36 soat, 15-16 yoshda esa 24 soatgacha qisqartilgan. O'quv yili mobaynida ishlaydigan o'quvchilar uchun, 14 dan 16 yoshgacha bo'lganlarga 2 soat, 16 dan 18 yoshgacha bo'lganlarga 3 soat ish soati belgilangan (242-modda). 18 yoshga to'lmagan o'smirlarni ish vaqtidan tashqari dam olish kunlari ishga jalb qilish mumkin emas (245-modda). 16-18 yoshdagi o'smirlar uchun tashiydigan va siljitadigan yukning og'irligi o'g'il bolalar uchun 13 kg, qizlar uchun 7 kg dan ortiq bo'lmasligi kerak.

O`smirlar uchun uzluksiz tashiydigan va siljitadigan yukning miqdori 4,1 kg dan ko`p bo`lmasligi lozim, 14-15 yoshdagi o`smirlar uchun esa me'yor 2 martagacha kamaytiriladi. (San K va M N 0052-96).

3.2. Mehnat muhofazasini nazorat qilish va tekshirib turish

Mehnatni muhofaza qilishning holati ustidan davlat nazorati va tekshiruvini davlat organlari amalga oshiradi. Mehnatni muhofaza qilishning me'yor va qoidalariga ro'ya etilishini jamoat tekshiruvini kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari amalga oshiradi (223-modda).

Texnik nazorat – jamoa xo`jaliklari va texnik xizmat ko`rsatish korxonalari hamma tashkilotlardagi mashina va uskunalarning texnik holatining shahar va viloyat Davlat mehnat texnik inspeksiylari orqali amalga oshiriladi.

Sanitariya nazorati – respublikamiz davlat sanitariya nazorati ishlab chiqarishda kasalliklarni kamaytirish, tashqi muhitni (suv havzalari, tuproq va atmosfera havosi) ifloslanishining oldini olishga, mehnat sharoitini sog`lomlashtirishga yo`naltirilgan sanitariya gigiena, sanitariya-epidimiologik chora-tadbirlarini o`tkazilishini nazorat qiladi, shuningdek, kasallanishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning o`tkazilishini tekshirib turadi.

Energetika nazorati – elektr texnik holatini, ularga xizmat ko`rsatishda xavfsizlikni ta'minlaydigan chora-tadbirlar o`tkazilishini nazorat qilib turadi.

Yong`in nazorati - uning vazifasiga, yangi qurilayotgan va ta'mirlanayotgan korxona, tashkilotlar va aholi yashaydigan joylar uchun muhandislik – texnikaviy yong`inga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish, ishlab turgan korxonalarda yong`inga qarshi profilaktika chora-tadbirlarni tashkil qilish, yong`inni oldini olish va o`chirishga keng jamoatchilikni jalb qilish ishlarini olib borish kiradi.

Avtomobil inspeksiysi – o`ziga qarashli viloyat, tuman inspektorlari orqali avtomobillarning, texnik holatini, haydovchilarning yo`l harakati qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qilib turadi, shuningdek, yo`l-transport hodisalarini oldini olishga doir profilaktik ishlarni olib boradi. Mehnat texnik inspektorlari tekshiruv o`tkazganida agar mehnat muhofazasi qoidalari buzilganligi va natijada

ishlovchilar sog`ligiga zarar etishi mumkinligi aniqlangan bo`lsa buyruq berish yoki ish xonalarini, ayrim uchastka, stanok yoki uskunalarda ishlashni taqiqlab quyishga haqlidir.

Korxona nazorati – xo`jalikda, shuningdek mehnat muhofazasiga doir ishlarni tashkil qilishda va unga umumiy rahbarlik qilish korxonalarda o`rinbosarlardan biriga, jamoat xo`jaliklarida rahbarlar zimmasiga yuklatiladi.

Jamoat nazorati – bu ishni mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi organlari tomonidan mehnat muhofazasi bo`yicha saylangan vakil tomonidan tekshiriladi.

Ishlab chiqarishda va o`quv ustaxonalarida sanitariya holatlari. Sanitariya me'yorlari va qoidalari

Mehnat gigienasi ishlab chiqarish muhitini va mehnat jarayonini kishi organizmiga ta'sirini o`rganadi va ularning sanitariya-gigiena holatlarini yaxshilash bo`yicha tavsiyanomalarni ishlab chiqadi. Bularning hammasi ishchilarning sog`lig`iga va ish qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi.

Ishlab chiqarish sanitariyasi - ishlab chiqarish korxonalari hududlarining holatini yaxshi saqlash, sanitariya-obodonlashtirish, ishlab chiqarish binolarini va xonalarini, sanitariya-texnik qurilmalari (havo almashish, istish, yoritish), sanitariya-maishiy xonalar qurilmalari, shaxsiy himoyalani vositalaridan foydalanish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi zaharlanishlarni hamda kasb kasalliklarini oldini olish, xizmatchilar sog`ligini muhofaza qilish, shuningdek mehnatni ilmiy tashkil qilish va ishlab chiqarish estetikasi bilan bog`liq bo`lgan gigiena chora-tadbirlarini ishlab chiqish masalalarini hal qiladi.

Shaxsiy gigiena tushunchasi - bu badanni toza tutish, ishlaganda shaxsiy gigienaga rioya qilish, o`zi ishlaydigan joyni ozoda tutish va boshqalar. Shaxsiy gigiena qoidalarini bajarish faqat individual emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ham bog`liq bo`ladi. Agar har bir odam shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilmasa u o`z oilasida va ishlaydigan jamoada yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sababchi bo`lishi mumkin.

3.3. Ishlab chiqarishdagi zararli omillar va ularning inson organizmiga ta'siri

Ishlab chiqarishning zararli omillar odamning ish qobiliyatiga ta'siri har xil bo'ladi va ularni ruxsat etilgan me'yordan ortishi kishining ish qobiliyatini birdan o'zgartirib yuborishi, shuningdek kasallikning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Issiqlik – barcha jismlarni tashkil etgan mikrozarralarning tartibsiz harakati. Ruxsat etilgan me'yordan havoning issiqligi yuqori bo'lsa, odam toliqadi, yurak-tomir kasalligiga chalinishi mumkin. Bosh og'rig'i paydo bo'lishi, issiq urishi mumkin. Agar havoning harorati me'yoridan past bo'lsa, issiqlikni yo'qotish ko'payadi. Havo namligi ham ma'lum darajada kishining ishlash qobiliyatiga ta'sir qiladi. Havoning nisbiy namligi 75 % dan oshmasligi va 30% dan kam bo'lmasligi kerak.

Gazlar va bug'lar qattiq va suyuq kristall holatdagi moddalar zaharli preparatlardan, yonilg'ılardan va moylash materiallaridan ajralib chiqishi mumkin. Gaz va bug' inson organizmini zaharlabgina qolmay, balki gaz portlash va yong'inga ham olib kelishi mumkin.

Chang. Zaharli bo'lmagan mineral yoki organik moddalar tomoq, ko'z, havo yo'li va o'pkani kasallanishiga olib kelishi mumkin. Zaharli moddadan iborat changlar organizmning zaharlanishiga olib keladi. Kishi ishlayotgan joydagi havoning zaharlangan chang 10 mg (m³ dan, kvarts changi esa 2 mg (m³ dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Titrash – kishi organizmiga uzoq vaqt davomida ta'sir qiladigan bo'lsa, yurak qon-tomir tizimini kasallanishiga, qon tarkibining o'zgarishiga, gipertoniya, hushdan ketishga sabab bo'lishi mumkin.

Yoritilganlik. Ishlab chiqarish xonalari va ish joylarining yaxshi yoritilganligi ko'z toliqishini kamaytiradi, nafas olishni yaxshilaydi, jarohat sabablarini yo'qotadi. Ish joylari tabiiy va sun'iy yorug'lik bilan yoritiladi. Joyidan qo'zg'almaydigan mashinalarda ish bajarilganda ularni yoritishda soya va yorug'lik nurlarni odam ko'ziga to'g'ridan-to'g'ri tushishidan saqlash kerak.

Xulosa va takliflar

Mazkur o'quv dasturida o'quvchilarga amaldagi tarmoq ta'lim standartlari doirasida chuqur bilim hamda amaliy ko'nikmalarni berish, o'qitishning interaktiv uslublari, yangi avlod axborot kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuterlashtirilgan dasturlar qo'llagan holda mashg'ulotlarni nazariy, amaliy darslar ko'rinishida tashkil etilib chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar berish maqsad qilib qo'yilgan.

Alohida urg'u fanlararo bog'lanishga berilgan bo'lib, bunda "Qimmatli qog'ozlar bozori", "Investitsiya va lizing asoslari", "Moliya" fanlarida o'tilgan mavzular fanni o'zlashtirish uchun asosiy zamin bo'ladi.

SHunga ko'ra, men o'zimning bitiruv malakaviy ishim mavzusiga, lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibini ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'qitish usuliga yangi ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali, darsning samaradorligini oshirishga harakat qildim. Menimcha darsni bu tarzda tashkil qilish, albatta o'zining samarasini beradi. O'ylaymanki darsni noan'anaviy tarzda tashkil qilish, birinchidan talabalarni darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ikkinchidan esa o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga tez va oson erishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu BMI ni bajarish mobaynida men:

- Kasb-hunar kollejlarda o'tiladigan «Investitsiyalar va lizing» fani bo'yicha dars materiallarini tahlil qildim.
- Kasb-hunar kollejlarda mutaxassislik fanlarini o'qitishda faol o'qitish metodlarini qo'llash orqali, darsning samaradorligini oshirish bo'yicha ma'lumotlarni o'rganib chiqdim.
- Kasb hunar kollejlarda «Lizing to'lovlari hisob-kitobi va ularni amalga oshirish tartibini» mavzusini ta'lim texnologiyalaridan i foydalanib o'qitishning namunaviy dars rejasini ishlab chiqdim.

Xulosa qilib aytganda, kasb – hunar kolejlarda mutaxassis fanlarni o'tishda yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash yaxshi samara beradi va talabalarning

bilim olishga qiziqishini yanada oshirishga va berilayotgan ma'lumotlarni talaba ongida eslab qolish koefitsentini ko'tarilishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida kelajakdagi etishib chiquvchi mutaxassis kadrlarning ilmiy, malakaviy salohiyatini oshiradi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Shavkat Mirziyoev, Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston" - 2016 y.
2. Shavkat Mirziyoev, Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston" - 2017 y.

II. Normativ –xuquqit xujjatlar

3. O'zbekiston Respublika Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston", 2003 y.
O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T., "SHarq" 2001.
Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonun. T. O'zbekiston 1998y.
6. O'zbekiston Respublikasi kadrlarni tayyorlash milliy dasturi.
7. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi T. "Adolat" 1996 y.
8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T. "SHarq" 2001. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlari.

III. Maxsus adabiyotlar.

9. Xudoyberdiev Z. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. «CHO'lpon nomidagi» nashriyoti.2010.
10. Xudoyberdiev Z. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. «CHO'lpon nomidagi» nashriyoti.2010.
11. Abduraxmonov K.X., Alloxberdieva A.M. "Основы менеджмента персонала». Uchebnoe posobie. M – 2000 g.
12. U.Yuldoshev, U.Usmonov va boshqalar. Mexnatni muxofaza qilish. Toshkent – 2001 yil.
13. Bepalko V.P., Tatur YU.G. Sistemno-metodicheskoe obespechenie uchebno-vospitatelnogo protsessa podgotovki spetsialista. M.: 1989.
14. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. T.: TESIS, 2001.-68 b.

15. D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.
16. G'.Nabiev, Marpatov M.D. "Lizing g'oyasi, tarixi, huquqiy asoslari va amaliyoti". T.: "O'AJBNT" Markazi-2004 yil, 80-bet.
17. Omonov A.A. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. T.: "Fan va texnologiya". Monografiya, 2008 yil, 248 b.
18. Tijorat banklari va lizing kompaniyalari yillik hisobot ma'lumotlari.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. www.google.co.uz
2. www.bank.uz www.google.co.uz
3. www.bank.uz
4. TDIU veb sayti www.tsue.uz
5. www.edu.uz.
6. www.Lex.uz
7. www.ziyo.net

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

«SERVIS» FAKULTETI

“Kasb ta’limi” kafedrası bitiruvchisi PO-15 KT/19A guruxi talabasi
Qodirov Xalol ning bitiruv malakaviy ishiga
TAQRIZ

Diplom loyihasining mavzusi:

“Lizing foydalanish hisob kitobi va ularni amalga oshirish”

DIPLOM LOYTHASIGA

XULOSA

Kasb hunar kollejlari tegishli davlat ta’limi standartlari doirasida o’rta maxsus kasb hunar ta’limi beruvchi o’quv muassasasi bo’lib u o’quvchilarning kasb-hunariga mo’villigi bilim va ko’nikmalarni chuqur rivojlanish tarlab olingan kasb hunar bo’yicha bir yoki bir necha ixtisosni beradi.

Demon yuqorida talidlanganidek ofitdon hotta ahomiyatga ega Biznes ishini o’rnatishda investitsiya va korijiy komponentlar foydali naxariy o’soslar maxsus belgilangan

DIPLOM LOYTHASINING KAMCHILIKLARI:

Diplom loyihasini ishida ayrim kamchiliklar mavjud bo’lib bu kamchiliklar ishini amaliy ahomiyatli pasaytiradi.

Taqrizchining loyihaga qo’ygani bahosi

“4/5 xaloli”

Taqrizchi:

Boamal tumani 50 yillik ta’lim
maktabi Qodirov Xalol B. Umarov

(Taqrizchining ish joyi, lavozimi, F.I.S.H.)



“2” 07 2019 yil